

D.B. XOSHIMOVA

INGLIZ TILIDAGI
KONNOTATIV LEKSIKANI
O'QITISHNING
LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

MONOGRAFIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

IMPULS TIBBIYOT INSTITUTI CHIRCHIQ FILIALI

XOSHIMOVA DILNOZA RIXSIBOEVNA

**INGLIZ TILIDAGI KONNOTATIV LEKSIKANI O‘QITISHNI
LINGVODIDAKTIK ASOSLARI**

MONOGRAFIYA

CHIRCHIQ-2026

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I-BOB. INGLIZ TILIDAGI KONNOTATIV MAZMUNLI MATNLARDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASI

1.1-§. Ingliz tilidagi konnotativ mohiyatli o'quv materialidan ta'lim jarayonida foydalanishning lingvomadaniy va metodik jihatlari	4
1.2-§. O'quv materiallarida ingliz tilidagi ifodali konnotativ leksikaning ekspressivlik tarkibiy qismi.....	22.
1.3-§. Pedagogika ta'lim yo'nalishi bakalavriyatida«Amaliy ingliz tili» o'quv kursini modulli o'qitilishning amaliy-pragmatik mexanizmlari	42

II-BOB. «AMALIY INGLIZ TILI" O'QUV MASHG'ULOTLARIDA KONNOTATIV MOHIYATLI O'QUV MATERIALIDAN FOYDALANISH METODIKASI

2.1-§. «Amaliy ingliz tili" kurslarida konnotativ mohiyatli o'quv materialidan foydalanish texnologiyasi.....	57
2.2-§. Ingliz tilini o'qitishda konnotativ mohiyatli matnlardan foydalanishning metodik tamoyillari.....	74

XULOSA.....	96
--------------------	-----------

GLOSSARIY.....	99
-----------------------	-----------

FOYDALANILGANADABIYOTLAR.....	100
--------------------------------------	------------

KIRISH

Dunyo miqyosida bo'lajak mutaxassislar uchun xalqaro hamkorlik va muloqotni til o'zlashtirish negizida rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirish, shu asnoda madaniy, siyosiy, iqtisodiy chegaralarni kengaytirish, o'qitish texnologiyalarini dual ta'lim bilan uyg'unlashtirish, o'qitish metodikalarini takomillashtirish, ta'lim sub'ektlarining bilim olish va bilim berish imkoniyatlarini xalqaro malaka talablari asosida tashkil qilish globallashtirish jarayonida alohida dolzarblik kasb etmoqda. Shuningdek, chet tilini o'qitish eksplikatsiyasida o'qitilayotgan o'quv modullari sifatini oshirish, bo'lajak kasb egalarini mutaxassislik kompetensiyalarini rivojlantirishda hal qiluvchi vazifani o'tamoqda.

Talabalarda nutq ko'nikmalarini shakllantirishning yangi modellarini joriy etish, o'quv materiallari sifatini oshirish, chet tilida professional darajada muloqot qilish uchun yetarli bilimlar to'plamini o'zlashtirish uchun axborot qidirish ko'nikmalarini oshirish hamda o'quv jarayoniga o'qitishning innovatsion va raqamli metodlaridan foydalanish yondashuvi bo'yicha qator ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, ingliz tilini chuqur o'zlashtirishda ilmiy asoslangan metodik ishlanmalarni o'qitish jarayoniga tatbiq qilish, didaktik texnologiyalarni metodik jihatdan tadqiq qilish zarurati mavjud.

Jahondagi yetakchi ta'lim tashkilotlarida va ilmiy-tadqiqot tekshirish (Germaniya, Fransiya, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya) markazlarida bo'lajak mutaxassislarning xorijiy tillarni o'rganish orqali madaniy-aksiologik qadriyatlarini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida ta'lim unumdorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning tillarni o'zlashtirish negizida professional kompetentligini yuksaltirishga oid tadqiqot ishlari ko'lami oshmoqda. Shuningdek, xorijiy tillar, xususan ingliz tilini o'qitishda pedagoglarning kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun turli yangi mazmundagi didaktik shakllardan foydalanish, innovasion tavsifdagi ta'lim vositalarini amaliyotda qo'llash, tahsil oluvchilarda motivasion va kognitiv qiziqish doiralarini kengaytirishga ehtiyoj mavjud. Shu bilanbirga, pedagogikaoliy ta'lim 4 muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish maqsadida ushbu monografiyani taqdim etyapmiz.

I BOB. INGLIZ TILIDAGI KONNOTATIV MAZMUNLI MATNLARDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASI

1.1. Ingliz tilidagi konnotativ mohiyatli o‘quv materialidan ta’lim jarayonida foydalanishning lingvomadaniy va metodik jihatlari

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni chuqur o‘rganish masalasi davlat siyosati darajasida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, mazkur sohada qabul qilinayotgan davlat dasturlari va strategik hujjatlar ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilishga qaratilgan. Ushbu islohotlar intellektual salohiyati yuksak, raqobatbardosh hamda global ta’lim va mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Davlat dasturlarida belgilangan vazifalar doirasida xorijiy tillarni o‘qitish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaralib, ko‘p tilli kommunikatsiyaga qodir, mobil tafakkurli va madaniyatararo muloqot kompetensiyalariga ega mutaxassislarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xorijiy tillarni chuqur o‘zlashtirish shaxsning intellektual rivoji, kasbiy faoliyati va xalqaro hamkorlik jarayonlarida samarali ishtirok etishini ta’minlovchi asosiy shart sifatida namoyon bo‘ladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Belgiya, Shveytsariya, Janubiy Koreya, AQSH, Xitoy kabilarda pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining umummadaniy bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, o‘zga tilli leksikani o‘zlashtirishning metodik asoslarini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Davlatlarining millatlararo kommunikatsiyasi, davlatlararo aloqalarining yetakchi vositalaridan biri sifatida xorij tilini o‘rganishni xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning aloqa almashuv omillaridan biriga aylantirdi. Shu jihatdan ingliz tilini o‘qitishda talabalarining lingvomadaniy dunyoqarashini kengaytirish, nutq kompetensiyalarini o‘stirish hamda matnlarni tuzish va talqin qilishda konnotativ mohiyatli o‘quv materiallaridan foydalanish metodikalarining pedagogik

imkoniyatlarini kengaytirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ta'lim oluvchilarning va o'qish, yozish, tinglash, gapirish kabi asosiy nutq faoliyatlarini o'zlashtirish zahirida maxsus jadallashtiruvchi metodikalarni yaratishga e'tibor qaratilmoqda.

Globallashuv sharoitida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'qitish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda pedagog kadrlarning kasbiy-kommunikativ salohiyatini rivojlantirish zamonaviy didaktik konsepsiyalar, innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda integrativ yondashuvlar asosida amalga oshirilishi lozim. Ta'lim amaliyotida an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, raqamli ta'lim muhiti, interaktiv platformalar va multimediali resurslarni tizimli joriy etish orqali o'qitish samaradorligini oshirish imkoniyati kengayadi.

Talabalarda chet tilini o'zlashtirishga nisbatan barqaror motivatsiyani shakllantirish, ularning kognitiv faolligini rag'batlantirish va kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv modellarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda fanlararo integratsiya, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarining chet tilidagi nutqiy faolligini jadal rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati mavjud. Ayniqsa, kommunikativ va kognitiv yondashuvlar uyg'unligiga asoslangan, raqamli ta'lim resurslari bilan integratsiyalashgan o'qitish strategiyalarini qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, zamon talablariga mos, ilmiy asoslangan va amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish metodikasini ishlab chiqish hamda joriy etish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar xorijiy tillarni o'qitishni ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab, zamonaviy,

raqobatbardosh va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, til o'rganish va o'rgatish jarayoniga talabalarni tayyorlashda individual va integrativ yondashuvlar, o'zlashtirilayotgan til xususiyatlarini oson va strukturali idrok etishga qaratilgan resurslarni modernizatsiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Modernizatsion yondashuvlardan biri til amaliyotida konnotativ mohiyatli o'quv materialidan ta'lim jarayonida foydalanish hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli ta'lim muhitida konnotativ mazmun yanada kengayib, multimediali, vizual va interaktiv elementlar orqali ifodalanmoqda. Bu esa, ta'lim mazmunini ko'pqatlamli semantik tizim sifatida tashkil etish imkonini beradi va talabalarning bilimni qabul qilish, anglash va qayta ishlash jarayonini faollashtiradi.

Zamonaviy ta'lim nazariyasida konnotativ tushuncha bilim mazmunining faqat denotativ, ya'ni aniq axborotiy qatlami bilan cheklanmasdan, balki uning qo'shimcha ma'no, qadriyat, munosabat va tajriba bilan boyitilgan semantik maydonini ifodalovchi muhim kategoriya sifatida qaraladi. Ta'lim jarayonida konnotatsiya bilimni o'zlashtirishning emosional, kognitiv va madaniy jihatlarini uyg'unlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Konnotativ yondashuv ta'limni mexanik axborot uzatish jarayoni sifatida emas, balki ma'no yaratish, talqin qilish va shaxsiy tajriba bilan boyitishga qaratilgan faol kognitiv jarayon sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv doirasida ta'lim oluvchi sub'yekt sifatida qaralib, uning individual dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va madaniy fonlari ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillar sifatida e'tirof etiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, konnotativ mazmun ta'limning tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va qiymatli funksiyalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ta'lim jarayoni nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki shaxsning ma'naviy-intellektual qiyofasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi semantik muhit sifatida namoyon bo'ladi.

Konnotativ tushunchaning ta'limda qo'llanilishi interdissiplinar xususiyatga ega bo'lib, lingvistika, psixologiya, kognitiv fanlar va pedagogika sohalaridagi

nazariy qarashlar uyg'unligiga tayanadi. Ayniqsa, kognitiv lingvistikada ma'noning konseptual va assosiativ jihatlari ta'lim mazmunini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun tadqiqotimizda konnotativ yondashuv ta'lim jarayonini semantik, qadriyat va tajriba uyg'unligida tashkil etishni nazarda tutuvchi ilmiy konsepsiya sifatida ta'lim sifatini oshirishning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblandi.

Konnotativ mohiyatli o'quv materiali til o'rganish jarayonida qanday imkoniyatlarni maydonga chiqaradi?-degan savol ustida ham tahliliy ishlar olib borildi. Birinchidan, ingliz tilini o'qitish jarayonida konnotativ yondashuvni tatbiq etish tilni faqat grammatik qoidalar va lug'aviy birliklar majmuasi sifatida emas, balki madaniy, ijtimoiy va diskursiv ma'nolarni o'z ichiga olgan muloqot vositasi sifatida o'zlashtirish imkonini yaratadi. Bu esa chet tilini o'rganish jarayonining mazmuniy chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ingliz tilidagi matnlar, nutqiy vaziyatlar va diskurs namunasidagi materiallar orqali talabalar til birliklarining konnotativ ma'nolarini anglay boshlaydilar. Bu jarayonda til o'rganish semantik tajriba sifatida shakllanib, talabalarining muloqotda ma'no yaratish qobiliyati rivojlanadi.

Uchinchidan, konnotativ yondashuv ingliz tilini o'qitishda madaniyatararo kompetensiyani shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Til birliklarining madaniy konnotatsiyalari, idiomalar, metaforalar va pragmatik ma'nolarni tahlil qilish orqali talabalar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglaydilar.

To'rtinchidan, raqamli ta'lim muhitida diskursiv xususiyatga ega elektron resurslardan foydalanish konnotativ mazmunni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Audio-video materiallar, onlayn platformalar va interaktiv kontentlar orqali ingliz tilini o'qitish talabalarining kognitiv va semantik faolligini oshiradi. Bunda ingliz tilini o'qitish jarayoni faqat lingvistik ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarining raqamli savodxonligi, tahliliy fikrlashi va axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantiruvchi kompleks ta'lim jarayoniga aylanadi.

Beshinchidan, konnotativ yondashuv asosida tashkil etilgan ingliz tili darslari talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirib, ularni faol muloqotga jalb etadi. Chunki bunday yondashuv ta'lim mazmunini shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'nolar bilan boyitadi va til o'rganish jarayonini sub'yektiv tajribaga aylantiradi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishda konnotativ yondashuvga asoslangan, diskursiv elektron resurslar bilan integratsiyalashgan o'quv modellarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan va zamon talablariga javob beradigan yo'nalish sifatida e'tirof etilishi lozim.

Bo'lajak mutaxassislarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etishda *madaniyatlilik, verbal samara, diksiya, ishonch, do'stona munosabatlarni o'rnata olish* kabilar muhim ahamiyat kasb etadi va qadriyatli, akmeologik, refleksiv mezonlar orqali konnotativ leksikani akademik muhitga singdirishga zamin yaratadi.

D.B.Absametova fikricha, "tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari – kognitologiya va lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan badiiy matn ma'lum bir lingvomadaniyatni aks ettiruvchi madaniy birlik sifatida o'rganilishi muhimligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda tilshunoslik fani rivojining yangi bosqichida ko'pgina lingvistlar diqqat markazida turgan insonning dunyoni anglashida til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, madaniyatning til orqali ifodalanishi, tilda aks etishi, til birliklarini kognitiv nuqtai nazardan o'rganish, matn yoki uning bo'lagiga madaniyatning aks ettiruvchisi (madaniy birlik) sifatida qarash kabi muammolarning yechimi nechog'lik dolzarb, muhim va o'rganilishi lozim ekanligini belgilaydi"[22]. Muallif fikriga qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, lingvokulturologiya o'z semantikasida milliy-madaniy ma'noni aks ettiradigan til birliklarini o'rganadi.

Pedagogika sohasida, xususan, til o'rgatish bo'yicha mobil mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimida tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki insonning ijtimoiy tajribasi, madaniy xotirasi va olam haqidagi tasavvurlarini ifodalovchi murakkab semiotik tizim sifatida o'rganishga asoslangan emosional intellektni

rivojlantirish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bugungi kunda global axborot makoni va xalqaro muloqotning kengayishi sharoitida til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yangi mazmun kasb etmoqda, ya'ni chet tilini o'zlashtirish shaxsning madaniy o'zligini anglash va uni bilingval muhitda namoyon etish vositasiga aylanmoqda.

Lingvomadaniy yo'nalishdagi tadqiqotlar insonning tabiat, jamiyat, tarix, san'at va boshqa ijtimoiy-madaniy borliqni qanday anglashi til orqali shakllanishini asoslab beradi. Shu bilan birga, zamonaviy tilshunoslik dunyo haqidagi bilimlar inson ongida qanday mental modellar shaklida aks etishi va ularning tilda qanday ifodalanishini o'rganishga qaratilgan. Bu ikki yondashuvning uyg'unligi til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi.

Lingvokulturologiya esa, ushbu yondashuvlarni integratsiya qilgan holda til va madaniyatni doimiy o'zaro ta'sirda bo'lgan yagona tizim sifatida talqin qiladi. Uning tadqiqot ob'yekti tilda ifodalangan madaniy ma'nolar, qadriyatlar va konseptlar bo'lib, ular bilingval va bilingvomadaniy muhitda ayniqsa faol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ingliz tili global muloqot tili sifatida turli madaniy kontekstlarda qo'llanilayotgani ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Bugungi kunda ingliz tilini o'qitish metodikasi talabalarning bilingval o'quv muhitida shakllanishi bilan bevosita bog'liq. Bunday muhitda ta'lim oluvchilar tilni faqat grammatik va leksik tizim sifatida emas, balki madaniy ma'nolarni uzatuvchi fenomen sifatida qabul qiladilar. Shu sababli ingliz tilini o'qitish jarayonida til va madaniyatni ajralmas birlik sifatida o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

XXI asrda lingvokulturologiyaning tilshunoslikda yetakchi yo'nalishlardan biri sifatida shakllanishi ingliz tilini o'qitishda mazmunni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. O'qituvchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida o'rganilayotgan tilga xos madaniy konseptlar, qiymatlar va ijtimoiy ramzlarni ta'lim mazmuniga integratsiya qiladi. Bu jarayonda madaniy ma'nolar til birliklari, diskursiv holatlar va kommunikativ vaziyatlar orqali talabalarga yetkaziladi.

Natijada, ingliz tilini o'qitishda turli pedagogik yondashuvlar, metod va usullardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Ayniqsa, interaktiv, diskursiv va bilingval yondashuvlarga asoslangan o'qitish usullari talabalarning madaniyatararo muloqot qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, ingliz tilini o'qitish zamonaviy jamiyatda til o'rganishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlar va bilingval ta'lim muhiti talablariga javob beradigan kompleks pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

V.Vorobev "lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo'lib, u madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlashuvlarni o'rganadi. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me'yorlar va qadriyatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi", - deb ko'rsatadi[112].

Atamalarning o'zaro farqli xususiyatlarini professor O'. Yusupov ilmiy tadqiqotlarida maxsus izohlab o'tadi: "Til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi" [113,15 b]. Olimning ta'kidlashicha, lingvokulturema til yoki nutq tizimida madaniy ma'noni o'zida jamlagan birlik bo'lib, u o'z semantik tuzilishi orqali muayyan xalqning madaniy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarash elementlarini ifodalaydi. Bunday birliklar til orqali madaniyatning konseptual mazmunini anglash imkonini beradi. Demak, lingvokulturema tushunchasi qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlarida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur kategoriya turli tillarda madaniy ma'nolar qanday ifodalanishi, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini yaratadi. Bu esa til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy jihatdan tahlil qilishga xizmat qiladi. Natijada, lingvokulturema tushunchasi til birliklarini faqat leksik yoki grammatik nuqtai nazardan emas, balki ularning madaniy-semantik yuklamasi nuqtai nazaridan ham o'rganish uchun samarali nazariy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

V.N. Teliya bu haqida shunday yozadi: “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir” [108,222b].

Yuqorida bayon etilgan nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash joizki, ingliz tilining amaliy o‘quv mashg‘ulotlarida talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish faqat so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish bilan cheklanmasligi lozim. Ayniqsa, til birliklarining konnotativ qirralarini anglash va ularni nutqiy faoliyatda maqsadli qo‘llash uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud. Bunda o‘rganilayotgan tilga xos madaniy kontekstlar, ijtimoiy qiymatlar va ma’no yaratish mexanizmlari ta’lim mazmuniga integratsiya qilinishi orqali talabalarning kognitiv va madaniy tafakkuri rivojlantiriladi. Ingliz tili orqali ifodalanadigan madaniy tajriba talabalarning dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, ularda ko‘pmadaniyatli muhitni anglash va qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o‘qitishda konnotativ leksikani chuqur o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim paradigmalariga murojaat etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki madaniy va semantik tajribani uzatuvchi fenomen sifatida o‘rganish imkonini yaratadi. Natijada, talabalarning polikultural manzarasi kengayib, ular xalqaro muloqot muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlanadi.

Konnotativ leksika - leksik ma’nodan tashqari turli xil hissiy-ifodaviy, metaforik, ramziy ma’nolarga ega bo‘lgan lingvokulturologik birlik bo‘lib, unda moddiy madaniyat, mentalitet, til va madaniyatning ta’sirchan izchilligi milliy kolorit bilan mujassamlangan holda tilda ifodalanadi.

Konnotatsiyani denotat yoki undan ham ko‘p ifodalovchi so‘zlar konnotasion leksika deb ataladi. Masalan, *incredibly incomparable; disgusting; brilliantly* (misli ko‘rilmagan, jirkanch so‘zlar hodisaga yuqori baho beradi (biri- ijobiy, ikkinchisi - salbiy).

Z.Battalova tadqiqotida konnotativ leksika shaxsning nutqiy kompetensiyalari va til faoliyatini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Muallif fikriga ko'ra, ingliz tilini o'qitish jarayonida konnotativ leksikani faol qo'llash orqali talabalarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratish zarur[40]. Bu jarayonda talabalar nafaqat so'zlarning denotativ ma'nolarini, balki ularning hissiy-ifodaviy, ramziy va metaforik qirralarini ham o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Tadqiqotda ta'kidlanishicha, konnotativ leksikaning eng muhim tarkibiy elementlari biri — tildagi madaniy va ijtimoiy ma'nolarni anglash va ularni nutqiy faoliyatda faol qo'llashdir. Bu esa talabalarning ingliz tilini chuqur va kontekstga mos ravishda tushunishlariga yordam beradi, shuningdek, til egasi bo'lgan xalqning madaniy tajribasi va mentalitetini bilish imkonini taqdim etadi. Olim, shuningdek, lingvokulturologik lug'atlardan, xususan «tilining konnotativ lug'atiminimumidan» samarali foydalanishning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Bu yondashuv talabalarga so'zlarni turli kontekstlarda, real nutqiy vaziyatlarda qo'llashga ko'maklashadi va natijada ularning leksik baza hamda kommunikativ salohiyati mustahkamlanadi.

Ingliz tilini o'qitishda tilni belgilar tizimi va ob'yektiv voqelikning tovushli modeli sifatida ko'rsatish, shuningdek nutq va kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda talabalarning leksik fondini kengaytirish va ularni turli lingvokulturologik kontekstlarda qo'llash imkonini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodik jihatdan, ingliz tilini o'qitishda asosiy prinsiplar lingvokulturologik yondashuv orqali ro'yobga chiqishi kerak. Bu talabalar tilni o'zlashtirish jarayonida uning madaniy konteksti bilan uzviy bog'lanishini ta'minlaydi, shu bilan til o'rganishni shaxsning kognitiv va ma'naviy rivojlanishiga yo'naltirilgan jarayonga aylantiradi.

Natijada, konnotativ leksikaga asoslangan mashg'ulotlar talabalarning amaliyotdagi nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning leksik bazasini boyitadi, nutqning emosional va semantik jihatlarini mukammallashtiradi hamda

bilingval va madaniy hamohanglikni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bir qator metodist-olimlar tomonidan konnotatsiya tarkibidagi komponentlarni aniqlashga harakat qilingan. Masalan, yuqorida nomi zikr qilingan olim tilning izohli lug'atlari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib boradi. R.Davletbayeva esa chet tilini o'qitishning ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi qonuniyatlari va tamoyillarini aniqlaydi, konnotatsiya tuzilmasidagi tarkibiy qismlarni tadqiq qiladi[40].

Bizning qarashimizcha, ko'p madaniyatli va ko'p millatli ta'lim muhitida konnotativ mazmunga ega o'quv materiallarini qo'llash ingliz tilini o'rgatish jarayonida kognitiv tarkibiy elementlarning ta'sirini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuv talabalarning tilni faqat grammatik va leksik jihatlari bilan emas, balki uning madaniy va semantik kontekstlarini ham tushunishlarini ta'minlaydi. Shu orqali ularning kommunikativ va kulturologik kompetensiyalari rivojlanadi, ya'ni talabalar til orqali turli madaniyatlarni anglash, ular bilan muvofiqlashuv va samarali muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Y.Karaulovning ta'kidlashicha, chet tilini o'zlashtirish jarayoni «a) tuzilmaviy-til murakkabligi darajasida, b) voqelikni aks ettirish chuqurligi va aniqligi, v) ma'lum bir maqsadli yo'nalishda farq qiladigan nutq asarlarini (matnlarni) yaratishga va qabul qilishga sabab bo'luvchi inson qobiliyati va xususiyatlari majmuidir...» [69, 3-bet].

Tadqiqot jarayonida biz lingvomadaniy prinsipning amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdik. Ushbu prinsipni samarali tatbiq qilishda asosiy vosita sifatida lingvokulturologik o'quv birliklaridan, ayniqsa konnotativ leksikadan foydalanish zarurligi aniqlandi. Bu yondashuv talabalarning tilni o'rganish jarayonida uning madaniy konteksti va semantik qirralarini chuqur tushunishini ta'minlaydi hamda nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

F.Ikramxanova fikriga ko'ra, ingliz tilini o'qitishda uni milliy voqelik bilan anglash juda muhimdir - bu lingvokulturologiyani lingvodidaktik makonda singib ketishini bildiradi [63,74-bet].

Bundan tashqari, L.Smaylxanovanning fikricha, lingvokulturologik tamoyil ingliz tilida so'zlashuvchi uchun madaniy kontekstni bilish zarurligini anglatadi va bu tilni o'zlashtirishni sezilarli darajada yengillashtiradi[101]. Unga ko'ra, tilning asosiy tuzilmalari va normalarini o'rganish jarayonida talabalar faqat tilviy jihatlarni emas, balki jamiyat va boshqa madaniyatning ichki strukturalari bilan ham tanishadilar. Madaniy fenomenlarga qiziqish ortishi ingliz tilini o'zlashtirishda yangi lingvokulturologik yo'nalishlarning rivojlanishiga olib keladi, bu yo'nalishlarda madaniyat va til bir butun tizim sifatida qaraladi. Bu jarayon ta'lim oluvchining ongida mukammal til ma'nolarini anglash imkonini yaratadi.

Ingliz tilini o'rganishda konnotativ leksika talabalarning nutq qobiliyati va madaniy bilimni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy va moddiy madaniyati shu leksik birliklarda aks etib, talabalarga intrakultural muloqotda ishtirok etish va ko'p madaniyatli muhitda o'zini samarali namoyon qilish imkonini beradi. Boshqa xalqning til va madaniyatini tushunish esa ikki tilli yoki multilingval shaxsni shakllantirish va madaniyatlararo kommunikatsiyani mustahkamlashda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Ingliz tilini o'qitish metodikasida asosiy vazifalardan biri talabaning intellektual, obrazli-hissiy sohasini rivojlantirish, dunyoning til tasvirini tushunishini va motivatsiya darajasini oshirishdan iborat. Bu jarayonda til o'rganish ehtiyojlari aniqlanib, ularga muvofiq pedagogik metodlar tanlanadi, shu bilan ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkoni yaratiladi.

Har bir milliy tilning ortida milliy-madaniy xususiyatlar va an'anaviy hayot ruhi aks etadi. Shu bois ingliz tilini o'rganish boshqa xalqning mentalitetini, hayoti va madaniy qadriyatlarini anglash imkonini taqdim etadi. Tillarni qiyosiy va tipologik jihatdan o'rganish, konseptosfera, kognitiv va assosiativ tadqiqotlar, madaniy voqelik va dunyoning konseptual bo'linishini hisobga olish talab qilinadi,

bu esa tilning barcha darajalari, ayniqsa leksik, frazeologik va madaniy-markalangan matnlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi.

Lingvomadaniy o'quv birliklari asosida konnotativ mazmundagi o'quv topshiriqlaridan samarali foydalanish ingliz tilini tug'ma til darajasida chuqur o'rganishga xizmat qiladi. "Konnotatsiya" tushunchasi mazmun va mohiyatning turlarini aniqlash bilan bog'liq bo'lib, uni semiotika, psixolingvistika, stilistika va mamlakatshunoslik sohalarida ham keng o'rganishadi. Shu sababli uning turlicha talqin qilinishi mumkin.

Adabiyot va leksikografik amaliyotda konnotatsiyaning komponentlari ko'p olimlar tomonidan umumiy qabul qilingan tasnif asosida ikki guruhga bo'linadi: til ichidagi va tashqi til komponentlari. Diaxronik va motivasion tarkibiy qismlar til tizimida so'zning o'rni va rivojlanishini ko'rsatadi. Tashqi komponentlar ekstremalingvistik omillar bilan bog'liq bo'lib, muloqot holati, muhokama qilinayotgan mavzu va voqea joyini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Ushbu guruh psixologik, funksional-stilistik, milliy-madaniy va idiomik kichik guruhlariga ajratiladi.

Konnotatsiyaning psixologik tashqi til komponentlari tarkibiga quyidagilar kiradi: - vaziyatni «ijobiy - salbiy - neytral» uqtai nazaridan idrok etish va baholash bilan bog'liq bo'lgan konnotatsiyaning baholash komponenti;

- konnotativ ahamiyatga ega bo'lgan emotiv komponent so'zlovchining shakllanayotgan yoki mumkin bo'lgan reaksiyalari trayektoriyasi nisbatan keng: so'zlashuvdan, e'tiborsiz, qo'pol va ma'qullashgacha;

- ekspressiv komponent denotatga kiruvchi belgilarni urg'ulash bilan bog'liq;
- fononsimantik komponent b.

- fonosemantik komponent tovush va taassurot bilan bog'liq bo'lib, bu gapiruvchilarga tovush orqali ekspressiyani (masalan, *murillash*, *dang-bada-bang*, *xirillash*, *puf-puflash*, *xirillash*, *uxu-uxulash* va b.) hosil qiladi. Konnotatsiyaning funksional-uslubiy komponentlari kichik guruhi tilning uslubiy bo'linishi bilan bog'liq.

Funksional-stilistik konnotatsiyalar ma'lum bir aloqa sohasida - kitob, ilmiy, ishbiarmonlik va boshqalarda birlikni afzal ko'rish bilan ifodalanadi. Ayniqsa, bu nutq nuqtai nazarini aks ettiruvchi milliy-madaniy tarkibiy qismni alohida ta'kidlashda ishlatiladi.

E.M. Storojeva jamiyatning guruhiiy tabaqalanishini aks ettiruvchi va so'zni muayyan til idiomasiiga (yoki til ma'lumotiga), aniqrog'i, ushbu idiomaning ijtimoiy asosi bo'lgan sohaga kirituvchi leksik tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi [105, 6-7 b]. Muallifning fikriga qo'shilgan holda ta'kidlash mumkinki,

E. Kuznetsova ham konnotatsiyaning komponentlarini tasniflashda shu usulni ilgari surgan bo'lib, uning nazariyasida quyidagi tarkibiy qismlar alohida ahamiyatga ega: **ekspressivlik komponenti**-yuqori ifodalilik ta'siriga ega bo'lgan leksik hodisalarni o'z ichiga oladi. Bu komponent keng ma'noda hodisalarning semantik va funksional belgilarini, ularning namoyon bo'lish darajasini tavsiflaydi[73]. Masalan, "qalampir" so'zi kimgadir gapirishga majburlangan shaxsga nisbatan qo'llanishi mumkin.

Hissiylik komponenti – so'zlar orqali baholash hissiyotlarini ifodalashga xizmat qiladi, masalan qayg'u, quvonch, hayrat kabi emosional holatlarni aks ettiradi.

Baholash komponenti – ijtimoiy nuqtai nazardan leksikaning baholash xususiyatini ko'rsatadi. Bu komponent so'zlarning ijtimoiy normalar va qoidalar bilan bog'liqligini aks ettiradi hamda qayg'uli, quvonchli holatlar, faoliyat va turli ijtimoiy hodisalarni (masalan, janjallashish, pishirish) ifodalaydi.

Obrazli komponenti – yashirin taqqoslash va metaforik tasvirlarni o'z ichiga olib, hodisalar to'g'risidagi tasavvurlarni jonlantiruvchi funksiyaga ega. Masalan, ko'rish, tishlash, qaynash, qichqirish, cho'chqa va ilon kabi so'zlar orqali obrazli tasvirlar yaratiladi.

T. Matveyeva o'z tadqiqotlarida konnotatsiyaning tarkibiy qismlari doirasini kengaytirib, ularni to'rt emas, **oltita turga** ajratadi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir komponent aniq so'zda yagona ma'noda emas, balki boshqa komponentlar bilan uyg'unlashgan holda ishlatilishi mumkin. Bu esa talabalarning leksik va konnotativ

bilimlarni chuqur va kontekstga muvofiq o'zlashtirishi uchun qo'llanilishi lozimligini ko'rsatadi[85].

Tadqiqotchi fikricha, konnotatsiyaning baholash komponenti nutq mavzusi haqida gapiruvchining «yaxshi» va «yomon» tushunchalariga umumlashtirilgan fikrini aks ettiradi. Biz muallif fikriga qo'shilgan holda ta'kidlashimiz mumkinki, mustaqil komponent sifatida, xolisona ma'no bildiruvchi baholash komponenti tajriba natijasida qo'lga kiritilgan ma'nolarni so'zlarda ajralib turishiga xizmat qiladi. Masalan, faoliyat ma'nosida: *yaxshi ishlash*, fanlarni o'zlashtirish ma'nosida: *yomon natija* va h.k. Ushbu komponent hissiy tarkibiy qism - gapiruvchining his-tuyg'ularini ifodalaydi va so'z ma'nolarining chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi: *nafrat*, *e'tiborsizlik*, *g'azab ifodasi*, yoki, *quyoshim*, *yuragim*, *arslonim* kabi hissiyot bilan aytilgan so'zlar.

Konnotatsiya nazariyasi so'zlashuvchining subektiv sohasini aks ettiruvchi leksik semantikani yanada to'liq, bir tekis va aniq talqin qilishga yordam beradi. Shunday qilib, yuqorida ko'rsatilgan tasniflash variantlarini solishtirishda komponentlarning: *baholash*, *parametrik* va *ekspressiv*, *gonorifik* va *emotiv* komponentlarini chuqur o'rganishga xizmat qiladi.

T. Matveyeva taklif etgan tasnif tilning milliy-madaniy ahamiyatini yanada to'liq va batafsil ochib beradi[85]. Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish davomida konnotativ leksikaga oid so'zlar talabalarning til o'zlashtirish sohasini kengaytirishi aniqlandi.

Tahlil natijasi bizni konnotasion leksikaning ba'zi belgilarini boshqasi bilan uyg'unlashtirish mumkinligiga ishontirdi, bu esa konnotatsiya tuzilmasida uchta komponentni ajratib ko'rsatish imkonini berdi: hissiy-ifodaviy (ijobiy, salbiy), ramziy va metaforik. Ikkita, ba'zi hollarda uchta qo'shimcha ma'noga ega bo'lgan so'zlar bor. Masalan, «ishonchsiz» so'zi u, yoki bu hodisaga ishonch yo'qligi haqida ma'lumot beradi (*ishonchsiz vaziyat*, *ishonchsiz dalillar*, *ishonchsiz kishi*) va emosional-ekspressiv konnotatsiya sifatida namoyon bo'ladi, ayrim holatlarda metaforik konnotatsiya bo'lib xizmat qiladi (masalan, ishonchsiz nodon).

Lugʻatlar tahlilidan konnotatsiyalar uchun alohida belgilar mavjud emasligi, lekin ular koʻchma maʼno va lugʻat mazmunining illyustrativ qismida keltirilgan frazeologik birliklar orqali noaniq koʻrinishda taqdim etilganligini koʻrish mumkin.

Yuqorida aytib oʻtilgan tarkibiy qismlardan tashqari, lugʻatlarda yaqin qoʻshimcha maʼnoli soʻzlarni topdik, ularning aksariyati hissiyotli-ifodali, ikkinchi oʻrinni metaforik, uchinchi oʻrinni esa ramziy maʼnoga ega soʻzlar tashkil etadi. Hissiy-ekspressiv konnotatsiyalar narsaga munosabatni ifodalash va uni baholash bilan bogʻliq: shaftoli qoqi, quyon, kampir, boʻri, tulki, (inson haqida). Bu konnotatsiyaga norozilik va gʻazabdan tortib, haqiqatgacha boʻlgan turli hissiyotlarning yuqori ifodaliligi va gamma taʼsiri kiradi.

Lingvomadaniyatning inson ijtimoiy hayotiga taʼsirini taʼriflar ekan O.Axmedova shunday fikr bildiradi: “XVIII asrdan boshlab “madaniyat” atamasi inson faoliyatining mahsuli boʻlgan barcha narsalarga nisbatan qoʻllanila boshlagan. Dastlab bu tushuncha yerga ishlov berish, qishloq xoʻjaligi bilan bogʻliq faoliyatni ifodalab, tabiatni oʻzlashtirish va uni qayta shakllantirish maʼnosini oʻz ichiga olgan. Vaqt oʻtishi bilan mazkur atamaning mazmuni kengayib, u nafaqat moddiy faoliyatni, balki insonning maʼnaviy kamoloti, bilim va tarbiya darajasini ham anglatadigan keng tushunchaga aylandi”[32]. Shu bois “madaniyat” soʻzi keyinchalik bilimli, maʼrifatli, yuksak axloq va tafakkurga ega shaxslarni tavsiflashda qoʻllanila boshladi.

Maʼnaviy madaniyat esa jamiyat hayotining eng muhim va serqirra sohalarini qamrab oladi. U ijtimoiy ongning barcha shakllarini — falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik va diniy qarashlarni, shuningdek, taʼlim-tarbiya tizimi, maktab va oliy taʼlim muassasalari, fan, sanʼat, ommaviy axborot vositalari, madaniyat markazlari hamda xalq ogʻzaki ijodiyotining barcha koʻrinishlarini oʻz ichiga oladi. Bularning barchasi insonning dunyoqarashi, tafakkuri va maʼnaviy qiyofasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat taraqqiyotida til, ayniqsa ona tili alohida oʻrin tutadi. Ona tili — millat maʼnaviyatining asosi, tarixiy xotirasi va madaniy merosini saqlovchi muhim vositadir. Insonning fikrlash madaniyati, oʻzligini anglashi va ijtimoiy

muhitda faol ishtirok etishi, avvalo, ona tilini chuqur bilishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, ona tili mustahkam poydevor bo'lib, uning asosida xorijiy tillarni o'rganish madaniy aloqalarni kengaytirish, jahon ilm-fani va madaniy yutuqlarini o'zlashtirish imkonini beradi. Demak, ona tili va xorijiy tillarni o'rganish o'zaro uyg'un holda inson ma'naviy madaniyatining boyishiga, tafakkur doirasining kengayishiga hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglashga xizmat qiladi. Shu ma'noda til madaniyatning na faqat ifoda vositasi, balki uni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Moddiy va ma'naviy madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldirib turadi. Xususan, til o'rganish jarayonida qo'llaniladigan moddiy vositalar — darsliklar, lug'atlar, raqamli platformalar yoki texnik qurilmalar insonning tafakkuri, bilimi va aqliy faoliyatisiz yaratilishi yoki rivojlantirilishi mumkin emas. Bu esa har qanday moddiy vositaning asosida ma'naviy omillar, ya'ni bilim, tajriba va intellektual mehnat mujassam ekanini ko'rsatadi. Shu bois til o'rganish muhitida moddiy madaniyatni shakllantirish va takomillashtirish jarayoni ma'naviy madaniyat bilan uzviy bog'liq holda amalga oshadi. Chunonchi, "Har qanday moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi"[84].

Milliy ma'naviyatni shakllantirishda til madaniyati va nutq ma'naviyati muhim o'rin tutadi. Insonning ichki ruhiy olami, his-tuyg'ulari va tafakkur jarayonlari uning lisoniy kognitiv faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Ayniqsa, to'satdan yuzaga kelgan voqea-hodisalarga nisbatan berilgan nutqiy reaksiyalar har bir millat vakillarining madaniy tafakkuri, ma'naviy qarashlari hamda til an'analari bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Kundalik hayotda uchraydigan oddiy holat — masalan, biror buyumning qo'ldan tushib ketishi — turli millat vakillari tomonidan har xil nutqiy birliklar orqali ifodalanadi. Ingliz ayoli bunday vaziyatda lug'aviy ma'nosi aniq bo'lmagan, ammo umumiy his-hayajonni anglatuvchi "Oops!" undovidan foydalansa, nemis va rus ayollari o'z nutqida "Mein Gott!", "Boje moy!" kabi ilohiy murojaatlarga asoslangan ifodalarni qo'llaydi. Bu holat mazkur millatlar nutq madaniyatida diniy-ma'naviy omillar

muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. O‘zbek nutq madaniyatida esa shunday holatlarda “Voy, o‘lay!” kabi salbiy ma‘no ottenkasiga ega bo‘lgan ifodalarning qo‘llanishi kuzatiladi. Bu esa milliy nutq tafakkurida emosional holatlarni ifodalashda ta’sirchanlik, keskinlik va dramatiklik ustuvor ekanligini anglatadi. Ushbu holat tasodifiy emas, balki asrlar davomida shakllangan madaniy va ma’naviy tajribaning nutqdagi ifodasidir. Inson hayotida qo‘llaniladigan predmetlar, shuningdek, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni ham madaniyat vositasi sifatida baholash mumkin. Chunki inson tashqi dunyoni bevosita emas, balki o‘z madaniy tajribasi, urf-odatlar va ma’naviy qarashlari orqali qabul qiladi. Shu nuqtai nazardan, madaniyat inson tafakkurini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Moddiy madaniyat insonlarning yashash sharoiti, mehnat faoliyati va turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lsa, ma’naviy madaniyat urf-odatlar, an‘analari, marosimlar va milliy qadriyatlarda o‘z ifodasini topadi. Madaniyat qanchalik chuqur va har tomonlama o‘rganilsa, uning inson fikrlashi, nutqi va kognitiv jarayonlari bilan uzviy bog‘liq ekanligi shunchalik yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois inson o‘z ongida aks etgan voqea-hodisalarni doimo madaniy tajribasi orqali anglashga intiladi. Demak, ingliz tilidagi konnotativ mohiyatli o‘quv materialidan ta’lim jarayonida foydalanishning lingvomadaniy va metodik jihatlari o‘rganilganda, talabalarga ma’naviy ma’aniyat voqealigini badiiy aks ettirish, konnotativ leksika mohiyatini chuqur tadqiq qilish va o‘zlashtirish vositasi ekanligini anglatish zarur.

Til birliklarining konnotativ qatlami inson tafakkuri, nutqiy faoliyati va milliy-ma’naviy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lisoniy vosita hisoblanadi. Konnotativ ma’noga ega leksik birliklar orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki so‘zlovchining emosional holati, ijtimoiy munosabati va madaniy qadriyatlarga munosabati ham ifodalanadi. Shu bois ta’lim jarayonida konnotativ leksikani maqsadli o‘rgatish talabalarda fikrlash faolligini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish hamda samarali kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Lingvodidaktik nuqtai nazardan qaralganda, konnotativ leksikani o‘zlashtirish talabalarning til birliklarining milliy-madaniy tarkibiy qismlarini anglash va tahlil

qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayonda talabalar soʻz va ifodalarning faqat lugʻaviy maʼnosini emas, balki ular ortida yashiringan madaniy, tarixiy va ijtimoiy maʼnolarni idrok etishga oʻrganadilar. Natijada taʼlim oluvchilarda lingvomadaniy kompetensiya, yaʼni til orqali milliy tafakkurni anglash qobiliyati shakllanadi.

Zamonaviy lingvodidaktik muhit modellari konnotativ leksikani oʻrgatishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Kommunikativ model doirasida konnotativ maʼnoli soʻz va ifodalar nutqiy vaziyatlar asosida oʻrgatiladi, bu esa talabalarning real muloqot jarayonida til birliklaridan toʻgʻri va maqsadga muvofiq foydalanish koʻnikmasini rivojlantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv esa konnotativ leksikani talabalarning umumiy va kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish vositasi sifatida qarashni taqozo etadi.

Kognitiv-diskursiv model asosida konnotativ leksikani oʻrgatish talabalarning tafakkur jarayonlarini faollashtirishga qaratilgan boʻlib, bunda til birliklari muayyan diskurs doirasida tahlil qilinadi. Bu model orqali taʼlim oluvchilar milliy dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy stereotiplarning nutqda qanday ifodalanishini anglay boshlaydilar. Shu bilan birga, inklyuziv-raqamli lingvodidaktik muhit konnotativ leksikani turli taʼlim ehtiyojlariga ega boʻlgan talabalar uchun moslashtirilgan shaklda oʻzlashtirish imkonini beradi, raqamli resurslar va interaktiv platformalar orqali mustaqil tahlil qilish koʻnikmasini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, konnotativ leksikani lingvodidaktik muhitning turli modellari asosida oʻqitish talabalarda fikrlash, nutq va kommunikativ koʻnikmalarni kompleks rivojlantirishga, shuningdek, til birliklarining milliy-madaniy mazmunini chuqur anglashga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy taʼlimning asosiy maqsadlaridan biri boʻlgan maʼnaviy yetuk, muloqotga layoqatli va madaniyatlararo kompetensiyaga ega shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2-§. O‘quv materiallarida ingliz tilidagi ifodali konnotativ leksikaning ekspressivlik tarkibiy qismi

Ingliz tilidan tashkil etiladigan dars mashg‘ulotlarida o‘quv materiallarini maqsadga muvofiq va ilmiy asoslangan holda tanlash ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. To‘g‘ri tanlangan o‘quv materiallari talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, solishtirish hamda xulosa chiqarish kabi analitik mushohada yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday materiallar ta‘lim oluvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni faol bilim olish jarayoniga jalb etadi.

Zamonaviy ta‘lim talablariga muvofiq, ingliz tilini o‘qitish jarayonida o‘quv muhitini faqat bilim uzatish maydoni sifatida emas, balki talabalar uchun oson, qulay va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi o‘zlashtirish makoniga aylantirish zarurati mavjud. Bu esa o‘quv materiallarining mazmunan sodda, vizual va interaktiv vositalar bilan boyitilgan bo‘lishini, shuningdek, talabalarning individual ta‘lim ehtiyojlari va kognitiv imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqdim etilishini taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, o‘quv muhitini erkin muloqot, mustaqil fikr bildirish va xatolar ustida ishlashga imkon beruvchi pedagogik makon sifatida tashkil etish ingliz tilini samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Bunday qulay ta‘lim muhitida talabalar til materialini chuqur anglaydi, uni amaliy nutq faoliyatida qo‘llashga tayyor bo‘ladi hamda shaxsiy bilim trayektoriyasini shakllantiradi.

O‘quv materiali sifatida keng ma’noda: tahsil oluvchining ta‘lim yo‘nalishiga tegishli o‘quv dasturi, fan, sillabusda ko‘rastilgan mavzusini o‘zlashtirishga yordam beradigan har qanday manbani hisoblash mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 oktyabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalarida foydalanish uchun xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish, ularni xarid qilish va foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 816-son

qaroriga muvofiq, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ingliz tilidan o'quv materiallari chet tilini o'zlashtirishning Umumevropa xalqaro standarti bo'yicha V2+ yoki, S1 darajasiga mos og'zaki va yozma malakalarni rivojlantiradigan, ilmiy, ilmiy-ommabop, ilmiy-texnik (sohalar bo'yicha) matnlardan iborat manba bo'lishi ko'rsatilgan[16].

Konnotativ ma'noli o'quv materiallari til o'rganishda muhim rol o'ynaydi, chunki u so'zlarning hissiy va madaniy kontekstlarini tushunishga yordam beradi. Ingliz tilida ba'zi so'zlar, yoki iboralar denotativ ma'nosidan tashqari, turli madaniyatlarda turlicha hissiy yoki ijtimoiy mazmunga ega bo'lishi mumkin.

Matn murakkab, ko'p qatlamli va integratsiyalashgan tizim sifatida talqin qilinadi, shu bois unga turli ilmiy-metodologik nuqtai nazarlardan yondashish yangi ta'rif va izohlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, o'qitish tizimida yuz berayotgan mazmun va shakl jihatidan o'zgarishlar, ta'lim paradigmalarining yangilanishi matnga bo'lgan yondashuvlarni ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu bilan birga, matnning universal va to'liq ta'rifi hozirga qadar ishlab chiqilmagan bo'lib, mazkur holat uning ilmiy tadqiqot ob'yekti sifatida dolzarbligini yanada oshiradi. Biroq, «matn», «badiiy matn» tushunchalarining identifikatori sifatida ko'rib chiqish bizning tadqiqotimiz uchun eng muhim hisoblanadi.

Konnotativ leksika ko'proq badiiy matnlarda uchraydi. «Badiiy matn»- badiiy asarning nutqiy jihat, uning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Badiiy matn ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, unda uyg'unlik va to'liqlik, mazmundorlik, takrorlanuvchanlik, hissiy ekspressiya mavjuddir.

I.Xaqqulov ta'kidlaganlaridek, "mukammal badiiy matn yo'q joyda – adabiyot yo'q. Adabiyot va san'atkorlik yo'qmi, demak u boshqa bir narsa. Uni o'z nomi bilan atash, o'z xarakter xususiyatlariga muvofiq usullarda tadqiq qilish kerak"[117,35 b].

Badiiy matn o'quvchi qiziqishini uyg'otish uchun ma'lum bir estetik maqsadni ko'zlagan til turi bo'lgan adabiy tildan foydalaniladi. Adabiyot muallifi o'z fikrini nafis va ma'lum bir uslub mezonida ifodalash uchun to'g'ri so'z izlaydi.

Matnning amaliy ifodalanish shakli sifatida dialog alohida ahamiyat kasb etadi. Agar matn nutq ko'nikmalari va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy didaktik birligi sifatida qaralsa, dialog ana shu matnning o'ziga xos, faol va funksional ko'rinishi hisoblanadi. Chunki dialog orqali ta'lim jarayonida qo'yilgan turli o'quv vazifalarini samarali hal etish, talabalarni real muloqot vaziyatlariga tayyorlash imkoni yaratiladi.

Shu bilan birga, dialog matnning barcha asosiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, u informativlik, mantiqiy izchillik va mazmuniy yaxlitlik kabi umumiy belgilarga ega. Ayni paytda, dialog shakli talabalarning nutqiy faolligini oshirish, interaktiv muloqotni tashkil etish hamda fikr almashish jarayonida til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [62].

Lingvistika atamalar lug'atida dialog nutqning o'ziga xos shakli sifatida izohlanib, u ikki yoki undan ortiq ishtirokchi o'rtasida bevosita nutqiy almashinuv amalga oshadigan muloqot jarayoni sifatida ta'riflanadi. Ushbu ta'rif dialogning interaktiv tabiati va ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirga asoslanganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotchi V. Dressler esa dialogni to'laqonli matn sifatida talqin qiladi. U matn va so'z tushunchalarini aniq farqlab, dialogni matnning maxsus turi deb hisoblaydi hamda uning tuzilishi ishtirokchilarning navbatma-navbat bayonotlaridan tashkil topishini ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, dialog matnga xos bo'lgan barcha asosiy belgilarni saqlagan holda, nutqiy aktlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va kommunikativ yaxlitlikni ta'minlaydi[56].

Shunday qilib, qator tilshunos olimlarning fikriga ko'ra, dialog matnning maxsus turi hisoblanib, unga nisbatan umumiy matnlarga xos bo'lgan nazariy yondashuvlar, tushunchalar va tahlil kategoriyalarini qo'llash mumkin hamda bu ilmiy jihatdan asoslidir. Dialog shakli til materialini real muloqot vaziyatlari kontekstida taqdim etish imkonini beradi, shuningdek, har qanday matnga xos bo'lgan modellashtirish, transformatsiya qilish va funksional qo'llash kabi amallarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu esa dialogni haqiqiy muloqot

amaliyotiga integratsiya qilish uchun qulay didaktik vositaga aylantiradi. Shu bilan birga, til faqat atrof-muhitdagi voqelikni aks ettirish vositasi bo'lib qolmay, balki ijtimoiy va ishlab chiqarish amaliyoti asosida shakllanadigan bilish jarayonining muhim komponenti sifatida dunyoning lingvistik manzarasini ham yaratadi. Bu jarayonda bilishning ikki bosqichi — jonli tafakkur va abstrakt fikrlash — o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Ayni paytda, dunyoning lingvistik manzarasi hamisha dunyoning mantiqiy manzarasiga to'liq mos kelavermaydi; tilga xos bo'lgan ayrim atributlar nisbiy mustaqillikni saqlagan holda, nutq faoliyatini boyitish va uning mazmuniy chuqurligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu nisbiy mustaqillik nafaqat idrokning sub'ektivligidan, balki voqelikni tarbiyaviy taqdim yetish tabiatidan va xalq milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida o'rganilayotgan tilning milliy o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Shu bois tilni o'qitish jarayonini faqat grammatik va leksik bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklab bo'lmaydi, balki uni o'rganilayotgan tilga xos milliy madaniyatga kirish vositasi sifatida talqin qilish zarur. Bunday yondashuvda til o'qitishning maqsadlari lingvomamlakatshunoslik nuqtai nazaridan belgilanib, chet tili bir vaqtning o'zida ham mustaqil o'rganish ob'yekti, ham mamlakatshunoslik mazmuni bilan uzviy bog'liq holda o'zlashtiriladigan ta'lim predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ta'lim mazmuni, o'qitish usullari, vositalari va shakllarini birlashtirish muammosi hozirgi kunda eng istiqbolli hisoblanadi.

Ingliz tilini o'qitish jarayonida konnotativ leksika o'rganilayotgan tildan foydalanish uni xalq madaniyati bilan bog'liq holda chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Ingliz tilidan amaliy kursni o'qitishda emosional-ekspressiv konnotatsiyalar madaniyatlarning farqlanishi, voqealarni hissiy idrok etish va hokazolar tufayli turli vaziyatlar yaratishga qodir. Masalan, «zuluk» - ingliz madaniyatida boshqalarning hisobidan yashaydigan tamagir va shafqasiz odam haqida shunday deyiladi - shunga mos ravishda salbiy hissiy-ekspressiv bahoga ega, buni quyidagi iboralar tasdiqlaydi: - zuluk kabi - uzilib qolmaslik uchun yopishib qolgan (zuluklar qonga to'la holda o'zlari tushadi).

Emotsional-ekspressiv bahoga ega bo'lgan so'zlar guruhining grammatik tuzilishini o'rganish shuni ko'rsatdiki, u asosan qo'shimchalar yordamida hosil bo'lgan sifat va otlarni o'z ichiga oladi. Ko'pgina hollarda bu sifat nomidagi prefikslar: juda, o'ta (yuqori sifat yoki ta'sir darajasi) (yuqori, oldingi, chiroyli); ko'pincha ta'sirni o'ta darajaga yetkazish alomatini ko'rsatadi (boqilgan); - yuqori darajaga qo'shiladigan, kuchaytiruvchi va so'zga bir oz arxaik xususiyat beradi (eng yaxshi, eng yaxshi, eng yomon); yuqori sifatli prefiksga o'xshash, lekin so'zlashuvga xosdir. Sifatlarning qo'shimchalari ot-gap bo'lagidan sifatlarning hosil bo'lishiga xizmat qiladigan qo'shimchalar hamdardlik, muloyimlik, istehzo, e'tiborsizlik, shuningdek, haqiqiy kamaytirish (lyogon, jim) ekspressiyasini beradi.

Talabalar faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni egallashga yo'naltiriladi. Ingliz tilini o'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va talabalarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayon o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topadi. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi talabalariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u talabalarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati talaba shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda talabalar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Talabalarga til o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. Ta'lim jarayonida talabalarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Ingliz tilida o'qish, yozish, tinglash, tushunish, kichik matnlarni tarjima qila olish; dialogli formatda munozara yurita olish uchun quyidagi lug'at talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin: Spring – bahor; Mild wyeather – yumshoq havo;

Rain showyers –bahorgi yomg‘irlar; Rainbow – kamalak; Fresh air –toza havo; Blooming gardens – gullayotgan bog‘lar; Mountain hiking – tog‘larga sayohat; Blossom – gullash; Apricot treye – o‘rik daraxti; Tulip – lola-qizg‘aldoq; Greyenery – yashillik, ko‘kat; Nowruz – Navro‘z; Plov – osh; Sumalak – sumalak; Kuk somsa – ko‘k u-somsa; Folk cyelebrations – xalq bayramlari; National costumes – xalq kiyim-kechaklari; Boys’ games (kopkari, chavgon) – o‘spirinlar uchun o‘yinlar (ko‘pkari, chovgon); Girls’ dancyes – qizlarning raqslari; Wheat sprouting – bug‘doyni o‘stirish va h.k.

Ushbu so‘z birikmalari asosida talabalar ingliz tilida O‘zbekistonda bahor hodisasini, bahoriy kayfiyat to‘g‘risida kichik matnli insho tuzishga muvaffaq bo‘ladilar.

Spring in Uzbekistan

Spring in Uzbekistan is a magical time of year when nature wakes up after a long winter. The wyeather becomes warm and pleasant, trees begin to blossom, and the air is filled with the scyent of fresh flowyers. Apricot and cherry treyes cover the streyets and gardens with white and pink petals, creating a beautiful sight.

*One of the most important spring events in Uzbekistan is **Nowruz**, the traditional New Year cyelebrated on March 21. People prepare special dishes like **sumalak**, **plov**, and **kuk somsa**. Familiyes gather to enjoy delicious food, play games, and watch traditional dancyes and music performancyes. Nowruz is a time of joy, kindness, and renewal.*

Spring is also perfect for outdoor activitiyes. Many people go to the mountains for hiking and picnics, enjoying the fresh air and greyen landscapes. Rain showyers are common in spring, but they make nature even more beautiful, bringing bright flowyers and lush greyenery.

Spring in Uzbekistan is not just a season; it is a time of happiness, traditions, and new beginnings. It brings people together and fills their hearts with warmth and hope.

Metodik jihatdan zamonaviy o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda Amaliy ingliz tili o'quv kursida lug'atlar bilan ishlash maqsadga muvofiq. Ingliz tilidan keng tarqalgan lug'atlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Akademik va o'quv lug'atlari:

Longman Dictionary of Contemporary English – so'zlarni aniq va sodda ko'rinishda talqin qiladi hamda qo'llanilish holatini tavsiflaydi;

Oxford Advanced Learners Dictionary – Mazkur lug'at eng mashhur lug'atlardan biri bo'lib, Intermediate va yuqori darajada ingliz tilini o'zlashtirgan talabalarga tavsiya etiladi;

Cambridge Advanced Learner's Dictionary –ingliz tilida so'zlashish uchun talabalarga qulay sharoit yaratib beradi hamda Intermediate, darajada ingliz tilini o'zlashtirgan talabalar uchun mo'ljallangan. Unda amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan so'z iboralarini ham uchratish mumkin;

Collins COBUILD Advanced Learner's Dictionary – ingliz tilida so'zlashish uchun talabalarga to'liq gap konstruksiyalarini misol tariqasida keltiriladi, so'z va so'z birikmalarini izohlaydi;

Ikki tilli lug'atlar:

Ingliz –o'zbek va O'zbek-ingliz lug'ati – uzbek ta'lim oluvchilari uchun klassik lug'at hisoblanadi;

Ingliz-rus lug'ati (Galperin I.R.) – ingliz tilini chuqur o'zlashtirish uchun mo'ljallangan akademik lug'at;

Macmillan English-Russian Dictionary for Advanced Learners – ingliz ta'riflarini rus tilidagi tarjimalar bilan uyg'unlashtirilgan holda ifodalash imkonini beradi.

Mavzuiy lug'atlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics – ingliz tili metodikasi o'quv kursi bo'yicha talabalar uchun foydali lug'at;

Macmillan Phrasal Verbs Dictionary (Ingliz tilidan frazali fe'llar lug'ati) – ingliz tilidagi frazali fe'llardan foydalanish holatlarini o'rgatuvchi akademik lug'at.

Cambridge Business English Dictionary – iqtisodiyot va biznes sohasi bo'yicha talabalarga akademik ma'lumot olish uchun mo'ljallangan lug'at;

Oxford Collocations Dictionary – ingliz tilida gap tuzishda qaysi so'zlardan unumli foydalanishni izohlab beruvchi lug'at (masalan: "'do a decision" o'rniga "make a decision" qo'llanilishi lozimligi va b.).

Tadqiqot davrida biz ingliz tilini o'qitishda onlayn formatda taqdim qilinadigan lug'atlarni ham tahlilga tortdik.

Fikrimizcha, kompyuter texnologiyalari asrida ingliz tilini o'rganishni onlayn lug'at yoki tarjimonsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuter, planshet va telefonga ega bo'lgan har bir talaba ingliz tilidagi so'zlarni tarjima qilish uchun an'anaviy qog'oz lug'atga nisbatan bir qator shubhasiz afzalliklarga ega bo'lgan dastur va lug'atlardan foydalanadi. Tahlillardan buning bir necha turdagi afzalliklari borligi ayon bo'ldi. Birinchidan, elektron ko'rinishdagi lug'atlar barcha kerakli ma'lumotlarni bir necha soniya ichida taqdim etadi, shunchaki qidiruv maydoniga kerakli so'z va iborani kiritish orqali talaba uchun qulay akademik holat yaratiladi; ikkinchidan, onlayn lug'atlar qog'ozli lug'atlarga qaraganda bir necha baravar ko'p xususiyat va funksiyalarga ega. Elektron lug'atlar qog'oz lug'atda shunchaki joy yo'q bo'lgan so'z ma'nolari, tushuntirishlar va misollarning maksimal sonini beradi. Uchinchidan, onlayn lug'atlar interaktivdir. Masalan, ular nafaqat transkripsiyani ko'rishga, balki so'zning qanday talaffuz qilinishini tinglashga ham imkon beradi. Ba'zi lug'atlarda hatto misollarni tinglash, yoki foydalanuvchi tushuntirishlarini o'qish mumkin. Bundan tashqari, onlayn lug'atlar joy egallamaydi va ular talabalar uchun qulaydir, chunki, talaba uni har doim o'zi bilan olib yurishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ingliz tilini o'qitishda elektron lug'atlardan bepul foydalanish mumkin. Onlayn inglizcha lug'atlarning aksariyati jamoat mulki bo'lgan to'liq va keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Onlayn lug'atlar faqat Internetga ulanganda ishlaydi. Agar talabalar lug'atning elektron versiyasini kompyuterga o'rnatmoqchi bo'lsa, ular turli

mavzularda qo'shimcha lug'atlarni yuklab olishi va shundagini qo'shimcha ma'lumot uchun lisenziya uchun to'lov to'lashi kerak bo'ladi.

Bugungi kunda talabalar uchun eng ommabop onlayn lug'atlarni o'quv mashg'ulotlariga o'qituvchi tomonidan tanlanishi darsni metodik jihatdan optimal tashkil qilishga sharoit yaratadi.

Lug'atlarning aksariyati bir tilli, ya'ni juda ko'nikib qolgan tarjimalarni taqdim etmaydi, balki ingliz tilidagi so'zlarning talqinini taklif qiladi. Monolingual onlayn lug'atlar, albatta, ingliz tilini o'rganishda qo'l keladi, shuning uchun tavsiflarni o'qib, talabalar uchun yoqqanini tanlash va undan foydalanish mumkin. Ingliz tili o'qituvchilari dars mobaynida talabalarga Longman Contemporary Dictionary lug'atini tavsiya etishlari mumkin. Ushbu lug'at Amerika ingliz tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan bir tilli lug'atdir. Ingliz tilidagi so'z qanday talaffuz qilinishini tinglash uchun qulay. Unda transkripsiya ikki formatda taqdim etiladi: tanish bo'lgan Xalqaro fonetik alifbo (IPA) formatida va bo'g'inli transkripsiya formatida, ularni almashtirish mumkin. Shuningdek, so'zlarning talaffuzi, yozilishi va ma'nosi amerikacha. Lug'at tezaurusi sinonimlarning katta ro'yxatini taqdim etadi va ular orasidagi farqni tushuntiradi.

Konnotativ leksikani o'rganishda aynan mana shu lug'atning foydali tomonlari ko'p, chunki unda so'zlarning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar mavjud. So'zning turdosh shakllari va antonimlari berilgan. Lug'atda bloglar, ommaviy axborot vositalari, videolardan olingan tarixiy va zamonaviy foydalanish misollari keltirilgan. Ingliz tilini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan yana bir lug'at bu- **UrbanDictionary.com**. Lug'at Collins English Dictionary bilan birlashtirilgan, shuning uchun ingliz tilidagi so'zning ma'nosini ham bilib olish mumkin. shuningdek, Multitran- tarjimonlar uchun mo'ljallangan ikki tilli onlayn lug'atni misol tariqasida keltirish mumkin. Multitran turli mavzularda so'zning juda ko'p ma'nolarini beradi, ma'no soylari va nuanslarini tushuntiradi. Lug'atning inglizcha-ruscha versiyasida transkripsiya mavjud, ammo inglizcha-o'zbekcha variantida so'zlarni tinglay olish imkoniyati mavjud emas.

Ingliz tilidan tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarida leksik materiallarni samarali o'zlashtirish talabalarning til kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda zamonaviy elektron va bir tilli lug'atlardan foydalanish talabalarga turli mavzular doirasida so'z va iboralarning real nutqda qo'llanilish holatlarini anglash imkonini beradi. Ayniqsa, misolli jumlar bilan ta'minlangan lug'atlar til birliklarining semantik, pragmatik va konnotativ xususiyatlarini ochib berishda samarali vosita hisoblanadi.

Agar talabalarning ingliz tilini o'zlashtirish darajasi Pre-Intermediate yoki undan yuqori bo'lsa, ularga konnotativ kontekstga boy elektron lug'atlardan foydalanishni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Bunday lug'atlar orqali ta'lim oluvchilar so'zlarning faqat asosiy ma'nosini emas, balki ularning emosional, uslubiy va madaniy qo'shimcha ma'nolarini ham idrok etadilar. Bu esa talabalarning nutqiy tafakkurini boyitish va ularni real muloqot vaziyatlariga tayyorlashga xizmat qiladi.

Ingliz tilidan amaliy o'quv kurslarida so'zlarni izohlash, shuningdek, Britaniya va Amerika variantlaridagi talaffuzni tinglash jarayonida multimediali ilovalar, elektron lug'atlar va raqamli o'quv resurslaridan foydalanish leksik materialni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, so'zlarning nutqda qo'llanilish chastotasi, tipik kontekstlari va kommunikativ vazifalari haqida ma'lumot berish talabalarida leksik birliklarni to'g'ri tanlash va qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

Turg'un birikmalar, frazeologik va bosh gapli birikmalarni tushuntirishda, shuningdek, Britaniya va Amerika ingliz tili o'rtasidagi leksik-uslubiy farqlarni anglatishda Oxford Living Dictionaries kabi bir tilli lug'atlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu lug'at Pre-Intermediate va undan yuqori darajadagi talabalar uchun mos bo'lib, qisqa va aniq izohlar, transkripsiya hamda audio talaffuzni o'z ichiga oladi. Dastlab berilgan misollar esa talabalar uchun axborotni idrok etishni osonlashtiradi.

Shuningdek, amaliy ingliz tili kurslarida talabalar egallaydigan bilimlarni mustahkamlashda sinonimik qatorlarni ko'rsatuvchi elektron vositalar alohida

ahamiyatga ega. “More examples” va “Synonyms” kabi funksiyalar orqali talabalar soʻz maʼnolarining nozik farqlarini, uslubiy qoʻllanilishini va konnotativ oʻttenkalarini tahlil qilish imkoniyatiga ega boʻladilar. Britaniya va Amerika variantlarini qiyosiy oʻrganishda esa maxsus Amerika ingliz tili lugʻatlaridan foydalanish talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi.

Auditoriya sharoitida ingliz tili oʻqituvchisi Macmillan Dictionary asosida tayyorlangan oʻquv qoʻllanmalarni taqdim etishi ham samarali hisoblanadi. Ushbu elektron resursda soʻzlarning kelib chiqishi, sinonimlar tizimi, maʼno nyuanslari, qoʻllanilish xususiyatlari va tezaurus maʼlumotlari keng qamrovda yoritilgan. Shuningdek, predlogli birikmalar, idiomatik ifodalar va ularning nutqda qoʻllanilishiga oid misollar konnotativ kontekstni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, konnotativ kontekstga boy elektron lugʻatlardan foydalanish ingliz tilini oʻqitish jarayonida talabalarning leksik kompetensiyasini chuqurlashtiradi, nutqiy va kommunikativ koʻnikmalarini rivojlantiradi hamda ularni real muloqot amaliyotiga samarali tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy lingvodidaktik taʼlimning muhim ilmiy-amaliy natijalaridan biri hisoblanadi.

Birinchi bosqich talabalari uchun tavsiya etiladigan zamonaviy oʻquv qoʻllanmalaridan biri Collins Dictionary hisoblanadi. Ushbu elektron lugʻat frazeologik birikmalar va turgʻun iboralarning maʼnolarini kontekstual misollar asosida batafsil izohlab beradi hamda tezaurus orqali qoʻshimcha leksik maʼlumot olish imkonini yaratadi. Elektron formatda taqdim etilgan mazkur qoʻllanma turli darajadagi lugʻatlarni integratsiya qilgan boʻlib, uning asosiy semantik bloki Collins English Dictionary materiallariga tayanadi va Pre-Intermediate hamda undan yuqori darajadagi talabalar uchun mos hisoblanadi.

Interfaol oʻquv muhitida ushbu lugʻatdan foydalanish talabalarning leksik birliklarni faol oʻzlashtirishini taʼminlaydi. Juftlik va guruhli ish shakllarida talabalar frazemalarning maʼnosini mustaqil aniqlaydilar, misollarni tahlil qiladilar

va ularni nutqiy vaziyatlarda qo'llab ko'radilar. Bunday o'zaro o'zlashtirish jarayoni leksik materialning mustahkam o'zlashtirilishiga hamda kommunikativ faoliyatda samarali qo'llanilishiga xizmat qiladi.

O'quv materialidagi so'zlar o'rtasidagi semantik yaqinlik darajasiga qarab sinonimiya turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Biroq til tizimida mutlaqo bir xil ma'noga ega bo'lgan so'zlar juda kam uchraydi. Shu bois, konnotativ xususiyatga ega o'quv topshiriqlarida so'zlarning semantik ekspressiyasi, uslubiy rang-barangligi va leksik uyg'unligiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Bu esa sinonimlarning turli leksikografik manbalarda har xil tasniflanishiga sabab bo'ladi, chunki leksik sinonimiya mohiyati barcha tadqiqotchilar tomonidan bir xil talqin etilmaydi.

Zamonaviy lingvodidaktikada sinonimlar turli mezonlar asosida tasniflanadi: tuzilishiga ko'ra — bir ildizli va turli ildizli; funksiyasiga ko'ra — til va kontekst sinonimlari; ma'noviy muxolifatiga ko'ra — dubletlar va kvazisinonimlar. Dubletlar, ya'ni mutlaq sinonimlar, ma'no jihatdan tenglik munosabatida bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Ammo konnotativ mazmunga ega o'quv materiallarida dubletlarning ortiqcha qo'llanilishi til tizimining muvozanatini buzishi mumkin. Shuning uchun ta'lim jarayonida dubletlik holatlarini farqlash muhim hisoblanadi: ayrim so'zlar qo'llanishdan chiqadi yoki doirasi tortayadi; so'zlar semantik jihatdan ixtisoslashib, dubletlik xususiyatini yo'qotadi; yoki ular bitta leksik birlikka birlashadi.

Kvazisinonimlar esa qisman mos keluvchi so'zlar bo'lib, ular ma'nolarning kesishishi yoki qo'shilishi asosida shakllanadi. Bunday so'zlar orasida ideografik farqlar (ma'no nyuanslari) yoki stilistik farqlar (emosional-ekspressivlik, qo'llanish sohasi, uslubiy rang) mavjud bo'ladi. Shu bilan birga, kvazisinonimlarda nominativ umumiylik saqlanib qoladi, ya'ni muayyan kontekstda ular bir-birini almashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Interfaol ta'lim muhitida kvazisinonimlarni o'rgatishda o'z-o'zini tinglash mashqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalar elektron lug'at orqali so'z va iboralarning Britaniya va Amerika variantlaridagi talaffuzini tinglaydilar, so'ng o'z

nutqini yozib, tinglash orqali qiyosiy tahlil qiladilar. Bunday self-listening mashqlari talabalarda fonetik sezgirlik, nutqiy o'zini nazorat qilish va to'g'ri konnotativ ma'noni tanlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Amaliy ingliz tili” o'quv kursi doirasida pedagogika ta'lim yo'nalishlari bakalavrlariga konnotativ o'quv materialini tanlashda o'qituvchi sinonimiya, antonimiya, perifraza, idiomatika kabi til funksiyalarini anglatib berishi lozim. Xususan, sinonimlarning idilogik funksiyasi — taftologiyaning oldini olish, fikrni aniq va ta'sirchan yetkazish, shuningdek, stilistik funksiyasi — nutqni muayyan vaziyatga moslashtirish imkoniyatlarini amalda ko'rsatish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ekspressiv-stilistik sinonimlar orqali nutqdagi emosional va uslubiy farqlarni anglatish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini chuqurlashtiradi.

Interfaol lingvodidaktik muhitda elektron lug'atlardan, ayniqsa, konnotativ kontekstga boy resurslardan foydalanish talabalarning leksik bilimlarini faol o'zlashtirish, mustaqil tahlil qilish va o'z nutqini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ingliz tilini o'qitishda zamonaviy, samarali va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu jumladan, quyidagilar orqali talabalar ingliz tilini samarali va keng qamrovli o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar:

1. **Kontekstual misollar** – lug'at va frazeologik birikmalarning turli mavzulardagi qo'llanilishini ko'rish, ma'no va konnotativ xususiyatlarni aniq anglash.

2. **Sinonimiya va kvazisinonimlar** – ma'no va uslubiy ranglarni taqqoslash orqali leksik birliklarning chuqur tahlili va o'zlashtirilishi.

3. **Dubletlarni ajratish va integratsiya qilish** – til tizimidagi semantik va konnotativ farqlarni tushunish, dubletlikni to'g'ri qo'llash.

4. **Self-listening mashqlari** – Britaniya va Amerika ingliz tilidagi talaffuzni tinglash, o'z nutqini yozib tahlil qilish orqali fonetik va konnotativ sezgirlikni rivojlantirish.

5. **Multimediali lug'atlar va elektron qo'llanmalar** – tezaurus, audio- va video materiallar orqali so'z va iboralarni amaliy kontekstda qo'llash.

6. **Idiomatik va perifrazik ifodalar** – fikrni aniq va ta'sirchan yetkazish uchun turli uslubiy vositalardan foydalanish.

7. **Interfaol va o'zaro o'zlashtirish jarayonlari** – guruh va juftlikda ishlash, muhokama va rollik o'yinlari orqali ma'nolarni amalda sinash.

Ingliz tilida konnotativ leksikadagi sinonimlarning barchasi gapda bir xil sintaktik funksiyani bajaradi. Leksik sinonimiyaning mohiyatini talabalar tushunishda qiynalishadi. Shu sababli, konnotativ mohiyatli matnlarni talabalarga taqdim qilar ekan, o'qituvchi odatdagi funksiyalardan tashqari (transkripsiya, so'z talaffuzi, qo'llanish chastotasi to'g'risidagi ma'lumotlar) so'zning kelib chiqishi, so'zning ma'lum vaqt oralig'ida qanchalik mashhur bo'lganligi, masshtabda tanlanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni berishi maqsadga muvofiq (1.5-jadvalga qarang).

1.2.1 -jadval.

Ingliz tilida konnotativ leksikadagi sinonimlarning sintaktik funksiyasi

Funksiya nomi	Konnotativ leksikadagi sinonimlar
Bir xil ma'noli so'zlar	Satisfied, Contented Cheyerful, Joyful
Semantikasida farqi bor so'zlar	Delighted, elated
Yaqin yoki o'xshash ma'nodagi so'zlar	Sorrowful, out of sorts, downcast, dejected
Bir necha sinonimlardan iborat so'z turkumi	You wish, No swyeat, cut to the chase, pull someone's leg

Jadvalda aks etganidek, «good», «bad», «big», «little», «happy» i «pretty» kabi ingliz tilida keng qo'llaniladigan sinonimik qatorni boshqa sinonimlar bilan almashtirish talabalar uchun so'z boyligini oshirishga, konnotativ til leksikasini kengaytirishga xizmat qiladi. Buni biz quyidagi kayfiyatni bildiruvchi so'zlarning sinonimik qatoridan ko'rib chiqsak bo'ladi.

1.2.2-jadval.

Konnotativ til leksikasini kengaytirishga xizmat qiluvchi shaxs kayfiyatini ko'rsatuvchi ekspressiv qatoridagi sinonimlar

Happy	Sad
contented — mamnun	sorrowful — xafa
cheerful — quvnoq	dejected — tund
joyful — xursand	depressed — tushkun holatdagi kayfiyatda
untroubler — beg'ubor	downcast — ko'ngi hijil
delighted — g'alaba nashidasini surayotgan	downhearted — ruhiyati tushgan
satisfied — mamnun	out of sorts — kayfiyatsiz
elated — behad xursand	bluyer — xafaqon

Xuddi shuningdek, «pretty» so'ziga boshqa ko'plab variantlarni topish mumkin.

beautiful — chiroyli

charming — go'zal

cute — jozibali

elegant — elegant

good-looking — ko'rinishi yaxshi

gracyeful — bejirim

handsome — chiroyli

stunning — betakror

neat — orasta

exquisite — bekamu-kust

striking — hayajonga soluvchi

fairy — ertaklardagidek

Talabalar «Good» va «bad» soʻzlarini juda koʻp ishlatishadi. Ularning konnotativ leksikasini boyitish uchun dars mashgʻulotlarida ingliz tilidagi boshqa soʻzlarni tavsiya etish mumkin.

Good



Bad



Xuddi shuningdek, mashgʻulotlarda talabalarga sifat soʻz turkumlariga mos boʻlgan soʻzlar yordamida konnotativ leksikani boyitish uchun ayrim ingliz tilidagi oʻquv materiallarida uchraydigan soʻzlarni almashtirish imkonini berish mumkin.

1.2.3-jadval.

Miqdorni anglatuvchi ekspressiv soʻzlar

Little	Big
small — kichkina	huge — katta
tiny — mitti	giant — gigant

miniature — miniatyurali	enormous — ulkan
itsy-bitsy — urvoqdek	massive — massiv
compact — kompakt	stupendous — kolossal

Ekspressiv o‘quv matnidagi ingliz tilida keng uchraydigan “breathtaking», «boring», «tired» i «energetic» so‘zlari biron bir hodisadan qoniqish hissini, mag‘rurlanish, g‘ururlanish holatini bildiradi. Shu sababli talabalarda konnotativ leksika orqali ularning nutqiy kompetensiyalarini boyitishda ushbu so‘zlarni bilish talab etiladi.

1.2.4-jadval.

Inson tashqi ko‘rinishiga oid sifatlar

Breathtaking	Boring
spectacular — yaxshi taassurot qoldirish	tedious — zerikarli
magnificient — hashamatli	monotonous — bir xillik, odnoobraznyy
awesome — jo‘nbushga keltirish potryasayuyiy	repetitious — monoton
astonishing — hayron qoldirish	spiritless — tashabbussiz
stunning — lol qoldirish	uninspiring — so‘lib qolgan
stupendous — ajoyib taassurot qoldirish	uninteresting — qiziqarsiz
incredible — betakror	tiresome — mudratuvchi, charchatuvchi

Ingliz tilida qator tarkibidagi bo‘lgan so‘zlar uning semantik tuzilishini aniqlashtiradi, kengaytiradi, uni baholash qiymatlari bilan to‘ldiradi. O‘qituvchi

talabalarga konnotativ leksik soʻzlarni oʻrganishlarida matn mazmunini boyitish uchun quyidagi soʻzlardan foydalanish mumkinligini taklif etishi lozim.

1.2.4-jadval.

Inson feʼl-atforiga oid sifatlar

Energetic	Tired
lively — gavjum	worn out — qiynalib ketgan
spirited — faol	fatigued — charchagan
tireless — behalovat, charchoq bilmaslik	wearied — toliqqan
bouncy — dirkillagan	burnt out — kuyib kul boʻlgan (obrazli maʼnoda)
indefatigable — gʻayratli	wearied — charchagan
full of beans — energiyali	exhausted — qiynalgan

Ingliz tilidagi «for example» soʻz birikmasi talabalarning BKM va fanga oid kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladi, Biroq, ushbu soʻz birikmasini almashtirish ham mumkinligini koʻp talabalar bilishmaydi. Shu sababli oʻqituvchilar aynan mana shu jihatlarga ham eʼtiborlarini qaratishlari kerak.

1. For instance — Masalan....

In the electronics industry, for instance, 5,000 jobs are being lost — Masalan, elektron ishlab chiqarishda 5000 ish oʻrni yoʻqotilayapti.

2. As proof — Misol tariqasida, Misol sifatida, asosida....

As proof, we agree to sign it and use it from now — Misol sifatida keltirilgan dalillar asosida biz shartnomani ayni daqiqadan imzolashga rozilik bildiramiz.

3..To give you an idea — Sizning tasavvur qilishingiz uchun....

To give you an idea, let me tell you the legendes of Shirok yend Tomaris — Tasavvur qilishingiz uchun Shiroq va To‘maris to‘g‘risidagi afsonani aytib berishga ijozat berishingizni so‘rayman.

4. To illustrate — Misol uchun.....

There are many ways to improve English. To illustrate, simply listening to the Global news — Misol uchun, ingliz tilidagi talaffuzni yaxshilashning ko‘plab usullari mavjud. Buning uchun «Global yangiliklar»ni tinglang.

5. Let’s say — Aytishimiz mumkinki,...

Let’s say you find a great company and have your first interviyew on Monday — Aytishimiz mumkinki, siz yaxshi kompaniyani topdingiz va suhbat dushanba kuniga belgilangan.

6. Case in point — Namuna uchun misol.....

Supermarkets often charge too much for goods. Bananas are a case in point — Supermarketlarda narxlar ancha yuqori bo‘ladi. Bunga namuna sifatida bananlar narxini keltirish mumkin.

7. Imagine — Tasavvur qilsak.....

Imagine a scyenario where only 20% of people have a job — Shunday ssenariyni tasavvur qilingki, unda faqat 20% insonlar ish bilan ta‘minlangan.

8. To show you what I want — Gap nima xaqida ketayotganligini tasavvur qilish uchun.....

- To show you what I mean, I created a little diagram — Gap nima xaqida ketayotganligini tasavvur qilish uchun men kichik diagramma yaratdim.

9. Suppose that — Agar,.... bo‘lsa, unda

Suppose that every time you hear a song on the radio, the chancye of it being your favorite song is 2% — Agar, siz doimiy ravishda radiodan bitta qo‘shiqni tinglasangiz, unda u sizning sevimli qo‘shig‘ingizga aylanishining nisbati 2 % ni tashkil qiladi.

10. Pretend that — Shunga o‘xshash ko‘rinish bering, garchi.....

Pretend you know exactly what the product will be in five years, even though you know your plan will change — Besh yildan so‘ng mahsulot shunga o‘xshash ko‘rinishga ega bo‘lishini ko‘rsating, garchi sizning rejalarangiz o‘zgarsa-da.

Shunday qilib, ta’lim oluvchilar tomonidan ko‘p ishlatiladigan *very big*, *very busy*, *yoki very funny* kabi so‘z birikmalarini boshqa ingliz tilidagi ekspressivlikni bildiruvchi so‘z birikmalari bilan almashtirish mumkin.

1.2.5-jadval.

Inson holatini anglatuvchi sifatlar

very accurate	exact	aniq
very afraid	fearful	qo‘rqinchli
very angry	furious	badjahl
very annoying	exasperating	asablashtiruvchi
very big	massive	massiv
very boring	dull	rangsiz
very busy	swamped with work	Ish bilan ko‘milgan
very calm	serene	sokin
very careful	cautious	ehtiyotkor
very cheap	sting	arzon

Konnotativ leksikani boyitish uchun talabalarga quyidagi ekspressiv-sinonimik qatorni tavsiya etish mumkin:

- very clean — **spotless** — kam-ko‘stsiz
- very clear — **obvious** — aniq, ravshan
- very cold — **freezing** — muzdek

- very colorful — **vibrant** — yorqin
- very competitive — **cutthroat** — rahmsiz, shafqatsiz
- very complete — **comprehensive** — har tomonlama
- very confused — **perplexed** — xavotirli
- very creative — **innovative** — innovatsion
- very crowded — **bustling** — shovqinli
- very dangerous — **perilous** — xavfli

Demak, «Amaliy ingliz tili» o'quv kursini o'qitishda o'qituvchilar talabalarga taqdim qilinayotgan o'quv materiallaridagi matnlarni metodik jihatdan ishlovdan o'tkazishlari, ularning sifatli ta'lim olish ehtiyojlariga moslashtirishlari talab etiladi.


1.3. Pedagogika ta'lim yo'nalishi bakalavriatida «Amaliy ingliz tili» o'quv kursini modulli o'qitilishining amaliy-pragmatik mexanizmlari

«Amaliy ingliz tili» o'quv kursining pedagogika ta'lim yo'nalishi bakalavriatida o'qitilishiga quyilayotgan zamonaviy talablarda modulli ta'lim pedagogik texnologiyalarining bir turi sifatida ta'lim jarayoniga tobora kengroq yoyilmoqda. Modul so'zining asl ma'nosi "model" (frans. modele - namuna, lotincha – modulus – o'lchov) shartli obraz (ko'rgazma, sxema va b.q.) ya'ni ob'ekt yoki ob'ektlar tizimi ma'nolarini bildiradi. Umumiy ma'noda modul texnologiyasini o'qitishda ko'rgazmali vositalarning biri sifatida ham tushunish mumkin.

Ingliz tili mashg'ulotlarida "modulli o'qitish" termini xalqaro tushuncha modul bilan bog'liq bo'lib, uning bitta ma'nosi – faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u, modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Zamonaviy talablarga binoan, o'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNYeSKOning Tokiodagi butun jahon konsepsiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli o'qitish texnologiyasi – funksional

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yildagi 816-son Vazirlar Mahkamasining qarori asosida oliy ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda qo‘llanila boshladi[16] (1-rasmga qarang).



1.3.1-rasm. «Amaliy ingliz tili» o‘quv kursining pedagogika ta’lim yo‘nalishi bakalavriatida modulli ta’limning joriy etilishi

Ingliz tilining modulli o‘quv dasturi bir nechta muhim komponentlardan iborat bo‘lib, har bir modulning maqsadi aniq belgilanadi va uni o‘rganish natijasida talabalar egallashi lozim bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar tasvirlanadi. Shuningdek, modulni o‘zlashtirish jarayonida shakllanishi kerak bo‘lgan nazariy bilimlar ham ko‘rsatib o‘tiladi. Modulga ajratilgan umumiy vaqt, uning mavzular bo‘yicha taqsimoti va bajariladigan ishlar mazmuni aniqlanadi, shu bilan birga talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv jihoz va asbob-uskunalar ro‘yxati ham belgilanadi.

Ta’lim jarayonida talabalarning nazariy bilimlari va malakasini tekshirish uchun namunaviy test savollari kiritiladi, shuningdek, talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni baholash mezonlari ham modulda aks etiladi. Bundan

tashqari, modulni o'zlashtirishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati va qo'shimcha elektron resurslar ham modulning muhokama va amaliy mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun zarurdir.

Shu tarzda modulli o'quv dasturi talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va ingliz tilini amaliy kommunikativ muhitda qo'llash imkoniyatini ta'minlaydi.

«Amaliy ingliz tili» o'quv kursini o'qitishda o'quv modulining ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin (1.3.1-jadvalga qarang).

1.3.1-jadval.


Amaliy ingliz tili» o'quv kursi o'quv modulining variativ ko'rinishi

O'quv elementlari	Modul maqsadi va vazifalari	Talabalar uchun qo'llaniladigan nazorat turlari
Kirish nazorati	egallanishi lozim bo'lgan amaliy ko'nikmalar bajarish uchun zarur bo'lgan	Oldingi modul bo'yicha testlar
Didaktik jarayon algoritmalari	shakllanadigan nazariy bilimlar	Zarur bilim va ko'nikmalar
Reglament	modulga ajratilgan vaqt, o'quv vaqtining mavzular bo'yicha taqsimoti	O'quv materialini idrok etish
Modul mazmuni	bajariladigan ishlar mazmuni	Leksik, semantik, lingvomadaniy , pragmatikbilimlarga ega bo'lish
Yakuniy nazorat (o'zini o'zi nazorat qilish)	faoliyat operatsiyalari	Fanga oid kompetensiyalarni egallash

«Amaliy ingliz tili» o'quv kursining pedagogika ta'lim yo'nalishlarida o'qitilishiga quyilayotgan zamonaviy talablarda modulli ta'lim pedagogik texnologiyalarning

bir turi sifatida ta'lim jarayoniga tobora kengroq yoyilmoqda. Modul so'zining asl ma'nosi "model" (frans. modele - namuna, lotincha – modulus – o'lchov) shartli obraz (ko'rgazma, sxema va b.q.) ya'ni ob'ekt yoki ob'ektlı tizim ma'nolarini bildiradi. Umumiy ma'noda modul texnologiyasini o'qitishda ko'rgazmali vositalarning biri sifatida ham tushunish mumkin.

"Amaliy ingliz tili" o'quv kursini pedagogika yo'nalishlarida sifatli amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarida tajribali professor-o'qituvchilar tomonidan maxsus o'quv qo'llanmalari va metodik adabiyotlar yaratilishi zarur. Ushbu qo'llanmalarni ishlab chiqishda modulli ta'lim prinsiplariga asoslanish hamda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik va lingvodidaktik talablarni inobatga olish muhim hisoblanadi. Bu talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini muvozanatli rivojlantirish, konnotativ va kommunikativ jihatdan boy materialni egallashini ta'minlaydi. (1.3.2-rasmga qarang).



1.3.2-rasm.«Amaliy ingliz tili» o‘quv kursi bo‘yicha tayyorlangan o‘quv adabiyotiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar

«Amaliy ingliz tili» o‘quv kursini o‘qitishda talabalarning ingliz tilidagi o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishlari, ularning tafakkuri kelajak haqidagi faoliyat turlarini tuza olishiga bog‘liqligi inobatga olinadi. Shu bilan birga ularda badiiy-obrazli nutq, ilmiy nutq, rasmiy nutq kabi shakllar to‘liq o‘zlashtirilgan bo‘lishi talab etiladi va har qanday vaziyatda aniqlik, ravonlik, soddalik, ta’sirchanlik belgilari bo‘lib qolishi talab etiladi.

Ingliz tilini o‘qitish metodikasida o‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy vazifalari nuqtai nazaridan integrativ yondashuv g‘oyasi xususiy metodika, didaktika doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki pedagogik ahamiyatga egadir.

Mexanizm- (yunoncha: “mechane”-tuzilma, strukturali harakatning qurilmasi va b.) — pedagogikada bir, yoki, bir necha jarayon, yoki hodisani boshqa hodisalarning ma’lum harakatiga aylantirib beradigan tuzilmasi bo‘lib, o‘rganilayotgan jarayonning asosini tashkil etadi. Vazifasiga qarab, mexanizmlar harakatni uzatuvchi; ijrochi (ish bajaruvchi); boshqaruvchi, nazorat qiluvchi va rostlovchi; ta’minlovchi, saralovchi, tashuvchi; pedagogik, didaktik mahsulotlarni muvofiqlashtiruvchi komponentlardan tashkil topadi. Shundan kelib chiqib, biz konnotativ mohiyatli matnlarni talabalarga taqdim qilishda ularning o‘quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirishga ham alohida e’tiborni qaratdik.

Pedagogika ta’lim yo‘nalishi bakalavriatida «Amaliy ingliz tili» o‘quv kursini modulli o‘qitilishining amaliy-pragmatik mexanizmlari-shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘quv determinantalari: *shartlar, sabablar, omillar* orqali ta’limni amalga oshirishga mo‘ljallangan harakatni o‘zgartiruvchi va didaktik yo‘nalishlarni sifat jihatdan boshqa turiga aylantiruvchi, ijtimoiy muhitga to‘g‘ridan-to‘g‘ri metodik ta’sir etuvchi texnologik jarayon,-degan xulosaga kelindi. Bunda didaktik jarayonni boshqaruvchi, nazorat qiluvchi va rostlovchi modellari, prinsiplari, metodlari, usullari, vositalari kabi mexanizm komponentlaridan tashkil topgan texnologik jarayon o‘quv-biluv faoliyat bilan uyg‘unlikda ta’minlovchi, uni boshqarilib turilishini amalga oshiruvchi tuzilma

sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogika ta'lim yo'nalishi bakalavriatida «Amaliy ingliz tili» o'quv kursini modulli o'qitilishining amaliy-pragmatik mexanizmlari tarkibiga kiruvchi komponentlar o'zaro biriktirilgan bir necha ayrim qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Bir-biriga ta'sir etuvchi komponentlar pedagogik jarayonning o'zaro harakatlanadigan birikmasi sifatida qaraladi va ta'limiy-tarbiyaviy harakatni o'zgartirishda, uni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodika nuqtai nazaridan, o'qitish va tarbiyalash jarayonini kompleks yondashuv vositasi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv ta'limning shakllantiruvchi funksiyalarini – tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi vazifalarni hisobga olib, o'quv jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi. Talabalarning ingliz tilidagi o'quv materialini konnotativ leksika va kontekstga boy matnlar asosida samarali o'zlashtirishlarida integrativ yondashuvning asosiy tarbiyaviy vazifasi shuki, ularning chet tilini o'rganishi mintaqaviy va madaniy bilimlar bilan chambarchas bog'liq holda to'liq bilim tizimini shakllantirishi lozim.

Zamonaviy hayotda integrativ yondashuv jarayonlari fan, ta'lim va pedagogik jarayonlarga keng kirib borgan. Bu jarayonlar deyarli barcha fan va ta'lim sohalarini qamrab oladi. Eng umumiy shaklda, integrativ jarayonlar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Ma'lum bir fandagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish;
2. Turli fanlar yoki bir nechta tarmoqlar orasidagi bilimlarni integratsiya qilish;
3. Umumiy ilmiy tushunchalarni va metodika usullarini tatbiq etish orqali fan va ta'limni uyg'unlashtirish.

Shu tarzda, integrativ yondashuv orqali talabalar nafaqat tilni o'zlashtiradi, balki uning madaniy, mintaqaviy va fanlararo aloqadorligini ham tushunish imkoniga ega bo'ladi.

“Amaliy ingliz tili” o'quv kursini samarali o'qitishda ingliz tilining modulli o'quv dasturi muhim ahamiyatga ega. Har bir modulning tarkibi quyidagi asosiy elementlardan iborat bo'ladi: modul maqsadi, modulni o'zlashtirish natijasida talabalar egallashi lozim bo'lgan amaliy ko'nikmalar tavsifi, shuningdek, modulni


o'rganish jarayonida shakllanishi kerak bo'lgan nazariy bilimlar tavsifi. Modulning o'quv vaqti, uning mavzular bo'yicha taqsimoti va bajariladigan ishlar mazmuni aniq belgilanadi, shu bilan birga talabalarning amaliy mashqlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan o'quv jihoz va asbob-uskunalar ro'yxati ham nazarda tutilishi lozim.

Talabalarning nazariy bilimlarini baholash uchun namunaviy test savollari kiritiladi, shuningdek, ular tomonidan egallangan amaliy ko'nikmalarni baholash mezonlari ham modulda belgilanadi. Modulni amalga oshirishda foydalaniladigan adabiyotlar va qo'shimcha elektron resurslar ro'yxati talabalarning o'zlashtirish jarayonini samarali va integrativ shaklda tashkil etish imkonini beradi. Shu tariqa, modulli o'quv dasturi talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini uyg'un ravishda rivojlantirish, shuningdek, ingliz tilini amaliy kommunikativ muhitda qo'llash imkonini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijasida «Amaliy ingliz tili» o'quv kursini modulli o'qitilishining quyidagi ichki komponentlar asosidagi mexanizmga ega bo'lishi lozimligi aniqlandi:

- talabalarda ingliz tilini o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj; ma'rifatga intilish;
- ta'limiy faoliyatning umumiy yo'nalishini belgilovchi shakllanishlarni o'z ichiga olgan semantik komponent;
- shaxsiy qadriyatli yo'nalishlar, didaktik faoliyatni amalga oshirish usullari, vositalari va usullarini tanlashga ta'sir qiluvchi motivasion shakllanishlarni o'z ichiga olgan qiymatli komponent;
- mustahkam amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash zarurati;
- yangi til o'zlashtirish konstruksiyalariga o'chlik, moddiy farovonlikka erishish imkoniyati va boshqalar.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, biz tomonimizdan tadqiqot mobaynida pedagogika ta'lim yo'nalishi bakalavriatida «Amaliy ingliz tili» o'quv kursini modulli o'qitilishining amaliy-pragmatik mexanizmlari quyidagicha belgilandi (1.3.4-rasm).



1.3.5-rasm. Pedagogika ta'lim yo'nalishi bakalavriatida «Amaliy ingliz tili» o'quv kursini modulli o'qitilishining amaliy-pragmatik mexanizmlari

Konnotativ mohiyatli o'quv materialini idrok qilish va o'zlashtirish taksonomiyasini qo'llash natijasida ta'lim muassasalari, shu jumladan pedagogika ta'lim yo'nalishi bakalavriatida: a) talabalarning til o'zlashtirishda aniq maqsadga

intilishi, b) ingliz tilini o'zlashtirishga ichki motivatsiya, v) o'qish jarayonida topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, g) o'quv vaziyatlarini oqilona baholash, d) bajarilgan topshiriqlar natijasini ko'ra olish, ye) konnotativ mohiyatli matn va mavzulardagi o'quv maqsadlari va vazifalarining umumiy tamoyillari, harakatlar tavsifini to'liq idrok etish, j) o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan va oldingi egallangan bilimlar va ko'nikmalarni hisobga olib, kelgusidagi o'quv maqsadlarini oydinlashtirishga erishiladi.

Konnotativ mohiyatli matnlarni talabalarga taqdim qilar ekan, o'qituvchi leksikadagi so'zlarning sinonimlarining keng ro'yxatini jumlada qo'llash misollari bilan, shuningdek, so'zning antonimlarini ham taqdim etadi. Ushbu metodika orqali o'qituvchi so'zlarning leksik ma'nolari yaqinligi sinonimlikning hal qiluvchi sharti sifatida e'tirof etilishiga olib kelishini ko'rsata oladi.

Bunda mezon sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

1. leksik qiymatlarning yaqinligi yoki o'xshashligi.
2. faqat leksik qiymatlarning o'xshashligi.
3. leksik qiymatlarning yaqinligi, lekin bir xil emasligi.

Konnotativ mohiyatli matnda sinonimik qatorning tarkibi nafaqat alohida so'zlar, balki barqaror so'z birikmalari (frazologizmlar), shuningdek, jumla-kelishik shakllari bo'lishi mumkin: As sure as eggs is egg - ikki karra ikkidek; Banana skin - qaltis, toyinchoq vaziyat; A bad/ rotten apple - chirigan olma, yoki, shataloq otadigan quy; Beat around the bush - o'tgan kunlar; Be (all) water under the bridge / over the dam -; Apples and oranges / to compare apples and oranges - har xil narsalar, yer bilan omoncha farq va boshqalar.

1.3.2-jadval.

Amaliy ingliz tili o'quv kursi bo'yicha soatlar taqsimoti

№	O'quv kursi maqsadi	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan	
			Nazariy	Amaliy
1.	Developing knowledge of spelling and punctuation norms of the English language	120		120: 60/60
2.	Increasing spelling and punctuation literacy of students, improving proficiency in written and oral forms of the literary language; developing skills in using spelling and punctuation rules in practice, the ability to analyze and correct grammatical errors of various types	2		2
3.	Mustaqil ta'lim. Develop skills in using spelling and punctuation rules in practice; teach students to express their thoughts clearly and stylistically correctly, to improve their fluency in the written form of the English literary language.	210	100/110	
Jami:		360		

Jadvalda aks etganidek, talabalarga o'quv kursini o'qitishdan oldin ularning bazaviy ma'lumotlarini inobatga olish kerak. Aynan, fanni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlar, ya'ni: o'qitishning oldingi bosqichlari: umumta'lim maktablari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlarida egallangan bilimlar, ko'nikma va malakalardan foydalanish holatlari inobatga olinadi. Ingliz tilini o'qitishda ta'lim natijalari (TN) jadvalda keltirilganidek baholanadi (1.3.3-jadvalga qarang):

1.3.3-Jadval.

Talabalarining Amaliy ingliz tili o'quv kursi bo'yicha ta'lim natijalari (TN) ko'rsatkichlari

TN1	Orfografiya to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lish
TN2	Turli morfemalardagi unli va undoshlarning yozilishini bilish; murakkab so'zlarning yozilishi; turli gap bo'laklarining hol va qo'shimchalari; fe'llarning, turli shakllarning tuslanish va imlo xususiyatlarini bilish
TN3	Imlo qoidalari, qo'shimchalarning imlo qoidalari; fe'llarning shaxs sonlarining yozilishi; ergash gaplar, bog'lovchilar, kesimlar imlosi; sodda va murakkab gaplardagi tinish belgilari; qo'shilgan konstruksiyali gaplardagi tinish belgilari, kesimlar; tinish belgilarini bilishi
TN4	Turli morfemalarda unli va undoshlarning imlo qoidalaridan foydalana olish; turli gap bo'laklarining hollari va qo'shimchalarining imlo qoidalari.
TN5	Ergash, qo'shma gaplar, qo'shimchalarda yoziladigan imlo qoidalaridan foydalana olish; sodda va murakkab gaplarda tinish belgilarining qo'yilishi qoidalarini bilish va maliyotda qo'llay olish.
TN6	Oddiy va sodda murakkab gaplarda tinish belgilaridan foydalana olish; qo'shilgan konstruksiyalar, manzillar, kesimlari bo'lgan gaplarda tinish belgilarini qo'yish qoidalaridan xabardor bo'lish; Tobe bo'lak bo'lmagan so'z birikmalariga tinish belgilari, qiyosiy so'z birikmalariga tinish belgilarini quya olish; og'zaki til konstruksiyalaridan foydalana olish; matnni to'g'ri o'qish; tinglash, tushunish, kichik matnlarda dialoglar tuza olish.
TN7	Ingliz tilida o'qish, yozish, tinglash, tushunish, kichik matnlarni

	tarjima qila olish; dialogli formatda munozara yurita olish
TN8	Turli ko‘rinishdagi til qoidalarini bilish, xatolarni korreksiyalay olish

Dastur asosida talabalar tomonidan amaliy mashg‘ulotlar davomida fanni o‘zlashtirish bilan bog‘liq masalalar yechimi bajariladi; o‘quv rejasida nazarda tutilgan uy va auditoriyadagi yozma ishlarni, auditoriya testlarini, shuningdek, diktantlarni yozishni bajarish. Amaliy darsga tayyorgarlik dars mavzusi bo‘yicha grammatik materialni takrorlash (xabarlar tayyorlash) va uy mashqlarini bajarishni o‘z ichiga oladi. Uy vazifalari va auditoriyadagi topshiriqlarning hajmi o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. Sinovlar auditoriyada yakunlanadi va o‘qituvchiga ko‘rib chiqish uchun topshiriladi.

Amaliy darsning bir qismi an‘anaviy amaliy mashg‘ulotlar (tushuntirish va illyustrativ masalalar yechish) shaklida, qolgan qismi interfaol (dialog) texnologiyalardan foydalangan holda olib boriladi.

Amaliy kursni o‘qitish mobaynida talabalar uchun mustaqil ta’lim va mustaqil ishlash uchun quyidagi ish usullari taklif etiladi: o‘z-o‘zini o‘qitish va mustaqil ishning tavsiya etilgan mavzulari lingvistik faktlarni tahlil qilish va tadqiq qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni quyidagi shaklda bajarish tavsiya etiladi:

- esse - tanqidiy, publisistik va boshqa janrlarda dolzarb mavzu bo‘yicha o‘z shaxsiy fikrining yozma bayoni;
- individual topshiriqlarni bajarish;
- test (diktant);
- imlo lug‘atlari bilan ishlash;
- o‘tilgan mavzular bo‘yicha lug‘at yaratish;
- ish topshiriqlarini bajarish;
- tematik portfellarni yaratish;
- axborot va tahliliy materiallar bilan ishlash;
- birlamchi manbalar bilan ishlash;

- grafik modellarni yaratish (algoritmlar, jadvallar-sxemalar, diagrammalar-tayanch-model va boshqalar);
- multimedia taqdimotlarini yaratish;
- darslarga uslubiy ishlanmalar tayyorlash.

Ingliz tilini o‘qitishda o‘qituvchi ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi) xususiyatiga qarab, talabalarga mustaqil ishning boshqa turlaridan ham foydalanish mumkinligini e’tirof etishi mumkin. Mutaxassislik dasturi doirasida talabalar ingliz adabiy til normasining og‘zaki va yozma shakllarida erkin so‘zlasha olishi, ingliz tili imlosi va tinish belgilarining asosiy qoidalarini to‘liq o‘zlashtirishlari, ularni to‘g‘ri taqdim etish va amaliyotda qo‘llashlari, og‘zaki va yozma bayon etilgan dialogda imlo va tinish belgilaridagi xatolarni tahlil qilish va izohlash, joriy nazorat topshiriqlarini bajarish, yakuniy nazoratga yozma ishlarni topshirish talab etiladi. Bular kredit-modul tizimi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun kredit jamlashda qo‘l keladi.

Talabalar bilimni baholash va nazorat qilish mezonlari sifatida ularning ta’lim natijalari 100 balllik reyting tizimi yordamida baholanadi. Talabalar bilimni baholash va nazorat qilish mezonlari YeCTS (European Credit Transfer System) tizimi asosida amalga oshiriladi (1.3.4-jadvalga qarang).

1.3.4-jadval.

Talabalar bilimni baholash va nazorat qilish mezonlari

Joriy ball	Yakuniy ball
Joriy baho (JB) auditoriyada topshiriqlarni bajarganligi uchun qo‘yiladi; Mustaqil o‘quv topshiriqlarini bajarganligi uchun quyiladi – mustaqil ish bahosi (MIB)	Za otvet vo vremya itogovogo kontrolya – itogovaya osenka proverki (YN)

<i>Maksimal joriy nazorat</i> 50 ball	<i>Yakuniy nazoratning maksimal balli</i> 50 ball
--	--

Talaba oraliq va joriy nazoratlarda ($ON + JN > 50$ ball) to'plasa, yakuniy nazoratga kiritiladi
Modul ko'rsatkichlari (MK) (fan): $UMK = O/N + J/N$ Modul (pfan) $SO'OK \geq 60$ ballov. Bo'lganda, o'zlashtirilgan hisoblanadi

1-bosqich talabalari uchun o'quv dasturida ko'rsatilgan topshiriqni bajarish uchun kichik esse yozish taqdim qilinganda, ular quyidagi so'zlar asosida mavzuiy matn shakllantirishlari mumkin:

“Amaliy ingliz tili” o'quv kursi didaktik jarayonining amaliy-pragmatik mexanizmlarini tadqiq qilar ekanmiz, ta'lim jarayonidagi metod, ya'ni uslub, axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab bir necha turlarga bo'linishini kuzatdik:

- So'z orqali ifodalash, Hikoya;
- Ko'rgazmalilik;
- Amaliy;
- Tajriba;
- Ijtimoiy ongni shakllantirish.

Bu metodlar o'z navbatida quyidagi guruhlariga bo'linadi.

Birinchi guruh - so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa uslublar;

Ikkinchi guruh - kinofil'mlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash uslublari

Uchinchi guruh –amaliy topshiriqlarni bajarish harakatlari orqali ta'lim berish, talabalarda konstruktivlik sifatlarini rivojlantirish;

Toʻrtinchi guruh – yaxshi bajarilgan ishlarni maʼqullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va maʼnaviy ragʻbatlantirish.

Talabalarda konnotativ leksikani boyitishda oʻquv-biluv motivatsiya oʻz-oʻzini mustaqil oʻqitish, yaʼni, oʻz ustida ongli, bartartib ishlashga yoʻnaltiriladi va tilni chuqur oʻzlashtirishga ehtiyoj paydo boʻlgandagina taʼlim jarayonini samarali, deb hisoblash mumkin. Oʻz-oʻzini tahlil (nazorat) qilish oʻz shaxsi, mavjud til bilish darajasi, fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud bilimlarini boyitish yoki, bilimdagi “boʻshliqlar”ni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat metodi.

Oʻz bilimini tahlil (nazorat) qilish uchun talaba egallagan mavjud bilimlarini sarhisob qilishi, ularning ortib borishini muntazam monitoring qilib boradi.

Konnotativ mohiyatli matnlarni talabalarga taqdim qilish asosida ularning oʻquv-biluv faoliyatini tashkil qilish, qobiliyatini yuzaga chiqarishda yordamlash zarur. Oʻz-oʻzini baholash qiyin, lekin talabani bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois talaba irodali boʻlishi, oʻz burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos boʻlishi, oʻz-oʻzini takomillashtirishga intilishi lozim.

“Amaliy ingliz tili» oʻquv mashgʻulotlarida konnotativ mohiyatli oʻquv materialidan foydalanish uchun muayyan mashqlar yordamida talabalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularning rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatish lozim. Ingliz tilidan taqdim qilinayotgan mashqlar muayyan nutqiy xatti-harakatlarni koʻp marotaba takrorlashni oʻz ichiga oladi. Mashq va odatlantirish talaba uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini koʻnikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, talabaning aqliy qobiliyati rivojlanadi, maʼnaviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi. Xulosa sifatida shuni taʼkidlash mumkinki, konnotativ mohiyatli matnlar asosida talabalarning til oʻzlashtirishlarida tashkil qilinadigan didaktik jarayonlarda pedagogik shart-sharoitlar, oʻquv-metodik taʼminot, tanlangan metodlar va vositalar, jamoadagi psixologik iqlim, shaxslararo munosabatlar inobatga olinishi lozim.

II BOB. «AMALIY INGLIZ TILI" O'QUV MASHG'ULOTLARIDA KONNOTATIV MOHIYATLI O'QUV MATERIALIDAN FOYDALANISH METODIKASI

2.1. «Amaliy ingliz tili" kurslarida konnotativ mohiyatli o'quv materialidan foydalanish texnologiyalari

Konnotativ mohiyatli o'quv materialidan foydalanish «Amaliy ingliz tili" kursida talabalarning ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirishlarida ularning nutqiy aloqasi uchta aloqa ko'nikmalarini birlashtirish orqali ta'minlanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Qabul qilish qobiliyatlari

Talaba berilgan matn yoki nutqiy xabarni tinglash va tushunish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Bayonotning asosiy mavzusi va asosiy g'oyasini aniqlash va ta'kidlash ko'nikmasini shakllantirish.

2. Reproduktiv ko'nikmalar

Talaba so'zlarni va turli aloqa vaziyatlaridagi nutq birliklarini takrorlay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bu ko'nikmalar asosan til materialini o'zlashtirish va aniq moslashuv jarayonida qo'llaniladi.

3. Samarali ko'nikmalar

Berilgan mavzu, vaziyat yoki o'quv muammosiga muvofiq mustaqil gapirish qobiliyatini rivojlantirish.

Nutq birliklarini o'zgartirish va ularning ma'no va mazmunini to'g'ri talqin qilish qobiliyatini shakllantirish.

Ijodiy nutq dasturini amalga oshirishda til birliklarini integrativ va funksional ravishda birlashtirish qobiliyatini rivojlantirish.

Talabalarning ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirishlarida reseptiv ko'nikmalar dastlabki ko'nikmalar guruhiga kiradi.

«Amaliy ingliz tili» o'quv mashg'ulotlarida konnotativ mohiyatli o'quv materiallar yordamida reproduktiv ko'nikmalar filmlar, kitoblar va boshqalarning

mazmunini takrorlash bilan bog‘liq. Konnotativ mantlar, yuqorida ta’kidlaganimizdek badiiy adabiyotlarda ko‘p uchraydi va ular tavsif, rivoyat, afsona, asardan parcha, mulohaza singari taqdimot topshiriqlarining qo‘llanilishi bilan bog‘liq.

Talabalarning ingliz tilidagi o‘quv materialini samarali o‘zlashtirish ko‘nikmalari eng murakkab va integrativ ko‘nikmalardan hisoblanadi, chunki bu jarayon turli darajadagi til birliklarini mustaqil tanlash va ijodiy so‘z dasturini amalga oshirishni talab qiladi. Ushbu ko‘nikmalar qatoriga quyidagilar kiradi:

Ma’lumotlarni so‘rash va ularga to‘g‘ri va mantiqiy javob berish qobiliyati;

Gaplarni ma’lum bir mantiqiy ketma-ketlikda tuzish qobiliyati;

Matnlarni hikoya qilish, mulohaza yuritish va tavsiflashning o‘ziga xos xususiyatlari bilan qurish qobiliyati;

Reja elementlari, tezislar va boshqa asosiy qismlarni shakllantirish qobiliyati;

Tushuntirishlar va izohlar berish qobiliyati;

Fikrni yakunlash, rivojlantirish va misollar orqali tasvirlash qobiliyati;

Faktlar va hodisalarni taqqoslash, xulosa chiqarish hamda aloqa sherigining fikrini tasdiqlash yoki rad etish qobiliyati.

“Amaliy ingliz tili” o‘quv mashg‘ulotlarida konnotativ mohiyatli o‘quv materialidan samarali foydalanish uchun o‘qituvchi ob’yektlararo tarkibiy qismlarning tegishli kombinatsiyasi va sintezini ta’minlashi, ularni faktlar, tushunchalar, nazariyalar va g‘oyalar darajasida umumlashtirishi lozim. Shuningdek, talabalarda umumlashtirilgan bilimlar, faoliyat usullari va turlarining to‘liq tizimi shakllanishi zarur. Bu jarayon barcha kognitiv vositalardan – prinsiplar, tushunchalar, usullar va tildan – hamda turli o‘qitish shakllaridan, masalan, jamoaviy, individual, guruh va murakkab ekskursiyalardan kompleks foydalanishni talab qiladi. Shu bilan birga, ko‘rgazmali qurollar, didaktik materiallar va elektron ilova kabi o‘qitish vositalari ham samarali foydalanilishi lozim.

Tadqiqot mobaynida biz ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va **“Ingliz tilining Amaliy kursi”** o‘quv kursini samarali o‘qitish maqsadida

Rotation Modelining texnologiyasini takomillashtirdik. Shu asosda “**Ingliz tilidagi Grammar**” nomli elektron ilova ishlab chiqilib, uning imkoniyatlari orqali talabalarning til, grammatika va konnotativ leksikadagi mustaqil va ijodiy faoliyati samaradorligi sezilarli darajada oshirildi.

Rotation Modetrening texnologiyasi

Trening vazifasi – konnotativ mohiyatli o‘quv materialidagi interferensiya to‘siqlarini to‘g‘ri anglash va ularni yengib o‘tish, nutqni rivojlantirish bosqichlarini senzitivlik orqali namoyon eta olish (senzitivlikning rivojlanganligi voqea-hodisalar, atrofdagilar, ularning xatti-harakatlariga to‘g‘ri baho berish, to‘g‘ri qaror qabul qilish, oldindan rejalashtirish imkoniyatini oshiradi); og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri idrok qila olish;

Maqsadi:

1. Og‘zaki va yozma nutqdagi ekspressiyadan to‘g‘ri foydalanish va konnotativlik belgilari asosida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish.

2. Ingliz tili xususiyatlari, belgilari, qoidalarini to‘g‘ri tahlil etish, eslab qolishni ta‘minlash

3. Kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, ingliz tilidagi ma‘lumotlarni aniq uzatish, verbal muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, muloqot jarayonida kuzatuvchanlik, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Rotation Modetrening texnologiyalari qo‘llanilganda talabalar bilan amalga oshirilgan individual, guruhiiy natijalar baholash, hisobga olish har bir eksperimental guruh ishtirokchilari tomonidan “Qaytar aloqa” va “Natijalar samaradorligini baholash” anketalarini to‘ldirish yo‘li bilan amalga oshirildi. Ushbu texnologiyani qo‘llash davrida talabalarning nutqiy kompetensiyalarini, tinglab-tushunish, idrok etish, o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan tadbirlar tajriba guruhi sifatida ajratib olingan respondentlar o‘rtasida 2024-2025 o‘quv yillarida o‘tkazildi (2.1.1-jadvalga qarang).

2.1.1-jadval.

Ta'lim jarayonida qo'llanilgan Rotation Modetrening texnologiyasi bosqichlari

№	Texnologiya bosqichlari	Maqsad	Shakl va metodlar
1	Guruhiy va individual ta'sir; Motivasion	Talabalarning til o'zlashtirishlarida kognitiv, emosional va xulq-atvor bilan bog'liq jihatlarini rivojlantirish	Auditoriyada; Ko'rgazmali, Debat metodlari
2	Sinaluvchilarni emosional jihatdan qo'llab-quvvatlash; stimul berish	Talabalarda kommunikativ, lingvistik, pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish	Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda; Interfaol (Breynshtorming, atofatli shlyapalar va b. Metodlar)
3	Ishonch bildirish orqali emosional ta'sir ko'rsatish, rag'batlantirish	Konnotativ matnlarda uchraydigan ekspressiv leksikadan foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirish	Elektiv kurslarda; Juftlikda ishlash metodlari

«Amaliy ingliz tili» kurslarida konnotativ mohiyatli o'quv materialidan foydalanishga mo'ljallangan Rotation Modetrening texnologiyasini tatbiq qilinishi davomida ishtirokchilar nutqiy ko'nikmalar, nutqda uchraydigan turli to'siqlar (interferensiya) haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi nazarda tutildi.

Ingliz tilini o'qitishda pedagogik shakl va vositalar bilan bir qatorda metodlarning ham o'ziga xos o'рни mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Zero, tanlangan metod orqali jarayonning sifati kafolatlanadi. Shu sababli tavsiya etilayotgan texnologiya negizida bir qancha metod va vositalardan foydalanildi. Shuningdek, «Ingliz tilidagi Grammar» nomli elektron ilovaning ishlab chiqilganligi texnologiya samaradorligini birmuncha oshirdi. Elektron ilovada ingliz tilidagi

soʻzlarning mohiyati, grammatika boʻyicha maslahatlar, imloviy qoidalar va boshqa maʼlumotlarni talabalar uchun qulay variantda olish imkoniyati kengaydi (1-ilovaga qarang). Bu yuqori va ilgʻor darajalar uchun bir tilli lugʻat boʻlib, u Upper-Intermediate va Advancied darajalari uchun, FCYe, CAYe, CPE imtihonlariga tayyorgarlik koʻrish uchun javob beradi, chunki dastlabki ikkita lugʻat bilan solishtirganda, bu erda talqinlar yanada kengroq va murakkabroq tilda taqdim etilgan. Ilovada koʻproq “ilgʻor” tushuntirishlar, koʻproq sinonimlar, antonimlar, soʻzlardan foydalanishga misollar keltiriladi. Shuningdek, Britaniya va Amerika talaffuzini tinglash uchun audio-matnlar berilgan. Oʻxshash maʼnoli soʻz va sinonimlarni qoʻllashning nozik tomonlarini muhokama qiladigan maqolalarni oʻqish uchun tavsiyalar keltirilgan. Soʻzning kelib chiqishi haqidagi qoʻshimcha misollar va maʼlumotlar alohida ushbu ilovada keltirilgan. Shuningdek, oʻqituvchi uchun frazemalarning maʼnolarini misollar bilan batafsil tushuntirish; idiomalar alohida blokda, jumladan, talabalarni qiziqtirgan soʻz, tushuntirish va misollar bilan berilgan. Ushbu lugʻat Pre-Intermediate va undan yuqori darajadagi hamma uchun mos keladi. Sharhlar sodda va soʻzning qanchalik tez-tez ishlatilishini, shuningdek, mumkin boʻlgan soʻz shakllarini koʻrish mumkin. Ilovada transkripsiya taqdim etiladi, ingliz tilidagi soʻz qanday talaffuz qilinishini tinglash mumkin.

Tadqiqot davomida turli metodlar, xususan seminar, trening, munozara, aqliy hujum, suhbat, maʼruza, rolli oʻyinlardan foydalanildi. Albatta, tajriba oʻtkazish mobaynida taʼlim subʼyektlarining ixtiyoriy va ochiqlik bilan ishtirok etishlariga alohida ahamiyat qaratildi.

texnologiyasini Rotation Modetrening texnologiyasi negizida “Rezyume”, “Veb-kvest”, “Bumerang”, “Aqliy hujum”, “Keys” lardan foydalanish natijasida talabalarda konnotativ leksikani oʻzlashtirish samaradorligi oshdi.

Facye-to-Facye Driver texnologiyasini qoʻllash ham elektron taʼlimiy vositalar yordamida amalga oshirildi. Mazkur texnologiya nutqiy koʻnikmalarni rivojlantirishga moʻljallangan boʻlib, jadallashtiruvchi oʻqitish texnologiyasi sifatida qoʻllanildi. Uning maqsadi talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga faol kirishishi uchun oʻzining ingliz tilidan mavjud bilimlarini faollashtirishiga va

yangilarini (ba'zan, mustaqil ta'lim yo'li bilan) olishiga yo'naltirildi. Facye-to-Facye Driver - an'anaviy ta'limni kompyuter vositasi bilan takomillashtirishga yo'naltirilgan texnologiyadir.

Talabalarning ingliz tilidagi o'quv materialini o'zlashtirishda eng muhim uslubiy vazifa – **yaxlitlikni shakllantirish**dir. Bu jarayonda talabalarda: yaxlit ilmiy dunyoqarash, barqaror shaxs sifatida rivojlanish, tizimli bilimlar va umumlashtirilgan ko'nikmalar shakllantirish maqsad qilinadi.

Ingliz tilini o'qitishda butun o'quv jarayonini ta'lim, tarbiya va rivojlanish vazifalari birligida tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Shu asosda o'qitishning quyidagi asosiy funksiyalari inobatga olinadi:

Uslubiy funksiya – talabaning til o'zlashtirish jarayonini prognoz qilish, diagnostika qilish va leksik, grammatik jihatdan rivojlanishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, turli fanlar integratsiyasi orqali fonetika, lug'at, grammatika va stilistika asoslarini o'rganishda ham yaxlitlikni ta'minlaydi.

Shakllantiruvchi funksiya – o'quv, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi elementlarni birlashtirib, talabalarda to'liq va kompleks bilimlar hamda umumlashtirilgan ko'nikmalarni shakllantirish.

Konstruktiv funksiya – o'quv jarayonida sistemani to'liq tashkil etish, ma'ruzalar, mashg'ulotlar va interaktiv uslublar orqali bilimlar tizimini barqaror ravishda rivojlantirish.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar – **Veb-kvestlar, raqamli didaktik o'yinlar, SMART-panellar va elektron resurslar** – ingliz tili o'qitishda samarali vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. Ularning jadal rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi va ta'lim jarayonida tahsil oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, fan-texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini oliy ta'limda qo'llash va yangi innovasion ta'lim vositalari bilan ishlash talab etiladi.


Raqamli texnologiyalar ingliz tili mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, yoshlarning hayotiy va akademik yutuqlarini qondirish, o'z nuqtai nazarlarini ilmiy asoslash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar

badiiy adabiyot matnlarini ekspressiv ravishda o'zlashtirishi, kelgusi mehnat faoliyatiga mo'ljallangan kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishi va monitoring asosida metodik tavsiyalarni ishlab chiqishi mumkin.

Respublikamizda so'nggi yillar ichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'qitishga e'tibor qaratilib, bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. «Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifatini ta'minlash; oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilmoqda»[11]. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini innovasion bosqichga ko'tarish hamda o'qitishning ilg'or shakllaridan foydalanish asosida talabalarning kelgusidagi faoliyati uchun zarur bo'lgan malakalar kvintessensiyasini shakllantirish, ushbu malakalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar muhim vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi «Raqamli O'zbekiston—2030» PF-6079-son Farmoni [6], 2020 yil 6 oktyabrdagi «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4851-son[14], 2018 yil 24 apreldagi «Innovasion g'oyalar, texnologiyalar va loyixalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3682-son qarorlari[10], O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunlari (11.12.2003 yildagi 560-II-son)[2] o'qitish tizimidagi funksional ahamiyatli yo'riqlarni bajarishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim muhitida quyidagi qo'llanilayotgan raqamli texnologiya ko'rinishlarini tavsiflash mumkin: Veb-kvest texnologiyalari, Qo'shimcha reallik; Virtual reallik; Mashina yordamida o'qitish; Robototexnika; 3D-pechat, Bulutli va boshqalar (2.1.1-rasm).



2.1.1-rasm. Oliy ta'limda qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar turlari


Raqamli texnologiyalar talabalarga konnotativ mohiyatli o'quv matnlari orqali ingliz tilini samarali o'zlashtirish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalardan foydalanishda asosiy e'tibor kompyuterli o'yin shaklidagi o'quv faoliyati va veb-kvestlarga qaratilishi samarali natija beradi. Bu esa, bilim berish imkoniyatlarini kengaytiruvchi interaktiv metodlar orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, yangi o'quv materialini mazkur texnologiyalar asosida o'zlashtirish jarayoni oson va interaktiv ravishda kechadi. Taqdim etilayotgan o'quv materialini bayon qilishda mavzu maqsadi, asosiy mazmuni va o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan savollar talabalarga tushunarli bo'lishi kerak.

Ingliz tilidagi yangi mavzular veb-kvestlar, kompyuterli o'yinlar yoki bulutli texnologiyalar asosida va barcha talabalarning faol ishtirokini ta'minlab o'tkazilganda, ularning o'rganilayotgan mavzuga qiziqishi sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, o'quv jarayonida kvestlardan foydalanish faqat materialni platformadan yuklab olishdan iborat emas. Undan ko'ra, vaziyatli topshiriqlar, jumboq masalalar va murakkab interaktiv mashqlar orqali talabalarning muammoli fikrlash, muhokama qilish va ijodiy qaror chiqarish qobiliyatlari rivojlanadi.

Bunday veb-kvestlar talabalarning bilim darajasini sezilarli ravishda oshirishi va ularni o'rganilayotgan mavzuga faol jalb qilishi mumkin (2.2-rasmga qarang).



2.1.2-rasm. Ingliz tilini o'zlashtirishda raqamli texnologiyalarning integrativ jihatlari

Rasmda ko'rsatilganidek, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida veb-kvestlardan foydalanishi jarayonida ularning qabul qilinayotgan axborotni ruhiy qayta ishlash jarayonlari – ko'rish, eshitish va idrok etish analizatorlari asosida amalga oshadi. Bu jarayonlar talabalarning ma'naviy va kognitiv faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ingliz tilini o'qitishda raqamli texnologiyalar sohasi bilan aloqadorlikni tahlil qilganimizda, raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning badiiy adabiyot matnlarini samarali o'zlashtirishi masalasi hali to'laqonli yechimini topmaganligini aniqlash mumkin. Bu esa, o'qitish jarayonida konnotativ va semantik jihatdan boy matnlardan foydalanishni va veb-kvestlar orqali interaktiv faoliyatni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida talabalarni har tomonlama o'qitish dolzarb muammo bo'lib, u ko'p o'zgaruvchan natijani, ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta oladigan axloqiy yetuk shaxsni rivojlantirish va shakllantirishni ta'minlaydigan malaka oshirishning ketma-ket, ketma-ket bosqichlaridan iborat.

U. Xo'jamnazarov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarda frazeologik birliklar va stilistik ko'nikmalarni birgalikda shakllantirish zarurligi ta'kidlangan[124]. Shuningdek, muallif fikriga ko'ra, muloqot maqsadlariga mos ravishda til vositalarini to'g'ri tanlash usullari ham o'rganilishi kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarining aloqa sharoitlarini tez va aniq baholash qobiliyati, lingvistik bo'lmagan omillarni hisobga olishdagi malakalari va nutq jarayonida matnning asosiy maqsad va mazmunini anglash qobiliyati samarali muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda ular "kommunikativ yadro"ni — ya'ni, asosiy fikr va uning semantik yoki konnotativ mazmunini belgilab, uni turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishi lozim.

Shu jihatdan, konnotativ lug'atdan foydalanish talabalarining tilning emosional va ma'naviy qirralarini anglashida muhim rol o'ynaydi. Masalan, frazeologik birliklar va idiomalardan foydalanishda ularning sinonimlari, ekspressiv va stilistik xususiyatlariga e'tibor qaratilsa, talabalar matnni nafaqat grammatik, balki ma'naviy va ijtimoiy kontekstda ham to'liq tushunish imkoniga ega bo'ladilar.

Talabalarga konnotativ lug'atdan interaktiv mashqlar orqali foydalanish tavsiya etiladi. Bu jarayonda ular frazeologik birliklarning emosional-ekspressiv yoki ijtimoiy-munosabat qirralarini o'zlashtirib, muloqotda ana shu konnotativ ma'nolarni to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash ko'nikmasini shakllantirishi mumkin.

Muallifning fikriga qo'shilgan holda, ta'kidlash joizki, badiiy matnni tahlil qilar ekan, talaba nafaqat ingliz tilidagi stilistikaga oid konstruksiyalarni o'rganadi, balki bu sohadagi uning bilimlari yangilanadi va ingliz tilidagi so'zlarning

dastlabki to'plami, iboralar, ularni birlashtirish qoidalari, stilistik ma'nolarni ob'ektiv nutq holati bilan to'g'ri bog'lash qobiliyati o'sadi.

XXI asr axborot-kommunikatsiya asrida ma'lumotlar hajmining keskin ko'payishi tahsil oluvchilarda o'quv materialini idrok qilish barobarida uzatilayotgan axborotning sifatiga ham alohida talablar qo'ymoqda. Shu jihatdan olganda, o'qitish jarayonida o'quv axborotini o'zlashtirish texnologiyalarini takomillashtirish alohida e'tibor talab qilinayotgan masalalar sirasiga kiradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida mantdagi nutq vazifasi-muallif tomonidan taqdim qilingan fikr-mulohazalarni talabalarga axborot-kommunikatsiya vositalari asosida yetkazishdan iborat. Shundan kelib chiqib, fikrimizcha, talabalarning badiiy adabiyot matnlarini raqamli texnologiyalar asosida o'zlashtirishlarida:

- matn qismlari o'rtasida mantiqiy aloqalarni o'rnatish;

- asosiy fikrlarni saralash;

- raqamli taqdim etilgan matn tahlilini o'tkazish;

- umumlashmalarni shakllantirish malakalarini oshirish lozim. Bu yerda umumiy akademik ko'nikmalar badiiy matnni keng mushohada qilish kabi ko'lamli vazifalarni hal qilish uchun ishlatilishi muqarrar.

D.N.Taylakovanning "Ona tilidan ta'limiy maqsadlarga mo'ljallangan elektron resurslarni yaratish metodikasi" mavzusidagi dissertatsiyasida ona tilini o'qitishda axborot-resurslaridan foydalanish, o'qitishda innovasion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, munozara, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish muhim bo'lib hisoblanishi xaqidagi ma'lumotlar keltirilgan[106]. Muallif fikricha, "o'qitish jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarni va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko'rishga, ulab va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, diskussiyalarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqat qilishga o'rganadilar"[106]. Muallifning fikriga qo'shimcha tariqasida aytish mumkinki, buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o'yinlar qo'llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi va raqamlashtirilgan ijodiy ishlar qo'llaniladi.

T.M.Isaqllov tomonidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan "Ta'limda axborot texnologiyalari» fanidan 3D formatli elektron qo'llanma yaratish va foydalanish metodikasi" mavzusidagi dissertatsiya ishida ta'lim muassaslarida 3D formatli elektron resurslar yaratish va ulardan foydalanishning kreativ modellarini amaliyotga tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Muallif fikriga ko'ra, sifatli ta'lim berishda **axborot-ta'lim texnologiyalaridan** foydalanish, shuningdek ta'lim muhitida **3D va interaktiv texnologiyalar imkoniyatlarini** qo'llashning tizimli yo'lga qo'yilishi katta ahamiyatga ega [65]. Bu borada tadqiqotda ta'kidlanishicha, **o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ilmiy asosda rivojlantirish va elektron ta'lim resurslaridan foydalanishni kengaytirish** ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Tadqiqotchi ushbu vazifalar doirasida quyidagilarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi:

Faol elektron ta'lim muhiti yaratish- masalan, 5-sinf informatika va axborot texnologiyalari darslarida asinxron ta'limni integratsiyalash. Bu jarayonda talabalar **konnotativ mazmundagi elektron resurslardan** foydalanib, ma'lumotlarni na faqat texnik jihatdan, balki ma'naviy va emosional qirralarini ham to'liq anglash imkoniga ega bo'ladilar.

Diagnostic baholash mexanizmlarini joriy qilish- talabalarning bilimlari va ko'nikmalari, shu jumladan konnotativ va kontekstli tushunish darajasi baholanadi. Bu ularning til materialini samarali o'zlashtirishini ta'minlaydi.

O'qitish tuzilmasini integratsiyalash-elektron qo'llanmalar va ta'lim texnologiyalari asosida darslarning mazmuni va shakllanishini muvofiqlashtirish. Shu tarzda talabalar frazeologik birliklar, idiomalar va sinonimlardan foydalanib, **konnotativ ma'nolarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini** shakllantirishadi.

Shu bilan birga, elektron va 3D texnologiyalardan foydalanish talabalarning **murakkab til konstruksiyalari va nutq birliklarini kontekstda modellashtirish,**

ularning muloqot va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, hamda konnotativ lugʻatni interaktiv ravishda oʻzlashtirish imkonini yaratadi.

Natijada, zamonaviy axborot-taʼlim texnologiyalari **ingliz tili va boshqa fanlar taʼlimida ham amaliy, ham emosional maʼnoda qoʻllaniladigan konnotativ resurslar bilan integratsiyalashtirilganda**, oʻquv jarayoni talabalar uchun ham bilimni, ham maʼnaviy tushunishni samarali shakllantiruvchi muhitga aylanadi.

Tadqiqotchi ilmiy ishida taʼkidlaydiki, **“3D formatli elektron qoʻllanmalar yaratishda fanga oid nazariy va amaliy maʼlumotlar, qonun-qoidalar, tushunchalar taqdim etilishi bilan bir qatorda**, ular oʻquvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilishi, fanlararo bogʻlanishda takrorlashning oldini oladigan izchil va uygʻun ketma-ketlikka asoslangan boʻlishi hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining taʼlimga tez va samarali integratsiyasini inobatga olish zarur” [65].

Muallif fikriga qoʻshilib, ushbu yondashuvning zamonaviy raqamli taʼlim muhitida alohida ahamiyatga ega ekanini qayd etish mumkin. Xususan, **konnotativ resurslar bilan boyitilgan elektron qoʻllanmalar** oʻquvchilarga nazariy bilimlardan tashqari, ularning tildagi kontekstual tushunishini va emosional reaksiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa shunga olib keladiki: oʻquv jarayonida bilimlar va koʻnikmalar **ijtimoiy va madaniy kontekst bilan bogʻlantiriladi**; har bir oʻquv faoliyati **tushunish va amaliy qoʻllash jarayonida konnotativ maʼnoga ega boʻladi**, yaʼni soʻz va iboralar faqat leksik maʼnoda emas, balki ularning emosional va stilistik qirralari bilan ham oʻzlashtiriladi; elektron va 3D formatlar orqali mashqlar va veb-kvestlar oʻquvchilarning fikrlash, muloqot va ijodiy koʻnikmalarini rivojlantirishda samarali instrument vazifasini bajaradi.

Shuningdek, raqamli formatda oʻqitishda **pedagogik prinsiplar, taʼlim maqsadlari va mashgʻulot shakllarini** bir butun tizim sifatida tadqiq etish va amalga oshirish bugungi kunning muhim metodik talablaridan biri sifatida eʼtirof etilmoqda. Ushbu integrativ yondashuv talabalarning tilni nazariy va amaliy

jihatdan uyg'un ravishda o'zlashtirishini ta'minlaydi, shu bilan birga ularda mustaqil fikrlash, muloqot va ijodiy faoliyat qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarning konnotativ mohiyatli o'quv matnlarini raqamli texnologiyalar integratsiyasi yordamida o'zlashtirish quyidagi qulayliklarga ega:

- talabalar tomonidan konnotativ mohiyatli o'quv matnlarini o'zlashtirishlari uchun ularning ijodiy topshiriqlarni bajarishda, ularning kreativlik sohasini kengaytirishda;

- o'quv mashg'ulotidagi vaziyatli muammolarni hal etishda;

- o'quv mashg'ulotini tashkiliy va tarbiyaviy maqsadini amalga oshirishda e'tiqodni shakllantirishda;

- badiiy adabiyot matnlarning talabalarni mustaqil o'qitishda va o'zini-o'zi o'qitishda kompilyasion vazifani bajarganda;

- ta'lim jarayonida analitik tavsifdagi topshiriqlarni bajarishda;

- o'quv natijalarini baholash va ilmiy muammolarni hal etishda katta samara beradi.

Talabalarning konnotativ mohiyatli o'quv matnlarini raqamli texnologiyalar integratsiyasi yordamida o'zlashtirishdagi quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

badiiy adabiyotlarda ko'p uchraydigan konnotativ leksikani o'quv matnlari orqali raqamli texnologiyalar integratsiyasi yordamida o'qitishning muqobilligi va muammoli xarakterga egaligi, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash uchun qulayligi;

ta'lim mazmuni va o'quv faoliyati shakllarining izchillik, o'quv jarayoni ishtirokchilari orasida o'zaro dialog muhitining ta'minlanganligi;

o'quv jarayonida talabalarning faolliklari, mustaqilliklari, o'z-o'zini rivojlantirishi, ijodiy faoliyat ko'rsatishi, o'zlarini munosib baholay olishlariga erishilishi kabilar.

Tahlillar natijasidan aniqlanishicha, talabalarning konnotativ mohiyatli o'quv matnlarini raqamli texnologiyalar integratsiyasi yordamida o'zlashtirish va shu asnoda ingliz tilini o'qitishda asosan quyidagi kamchiliklar uchraydi:

- talabalarning raqamli texnologiyalar integratsiyasi yordamida bilim o'zlashtirishlari uchun yetarli moddiy-texnika bazasining yetishmasligi va yangi rusmdagi kompyuter ustqurmalaridan foydalanmaslik;

- tez ishlaydigan Internet tarmog'iga ulanish imkoniyatining mavjud emasligi;

- yangi materialni o'tish uchun haddan tashqari oz vaqt ajratish va buning natijasida, talabalarning ta'limiy ehtiyojlarini inobatga olmaslik, yetarli darajada faollashtirishga vaqt ajratmaslik;

- qisqa vaqtga bo'lsa ham talabalarni o'z holiga maqsadsiz tashlab qo'yish, doskadagi taqdimot javobini kutib o'tirish, uy vazifalarni tekshirishda qolgan talabalarning nazorasiz qolishi v.h.;

- mavzu yuzasidan qoidalar, xulosalarni chiqarmay turib, uyga vazifa berish;

- yangi materialni talabalarga tez sur'atlar bilan (tushunish, qisqacha yozib borishga imkon bermay) yoki aksincha juda sekinlik bilan o'tish va boshqalar.

Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, xorij tillarini o'qitish texnologiyalari **mustaqil rivojlanish va doimiy takomillashuv jarayonida** bo'lib, bu jarayon zamonaviy pedagogik tajribalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning tez rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. **AKTning taraqqiyoti** pedagogik ta'lim shakllari, usullari va vositalariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ta'lim standartlarini yangilashni taqozo qiladi. Shu bilan birga, ta'lim va o'qitish jarayonlari **eng tez o'zgaruvchi va innovatsiyaga ochiq sohalardan biriga aylanmoqda**, bu esa chet tillarni o'qitishda ham yangi texnologiyalardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida tanlab olingan oliy ta'lim muassasalarida talabalarning **konnotativ mohiyatli o'quv matnlarini o'zlashtirishlari uchun texnologiyalar asosida mo'jassamlashtirilgan turli usullar** qo'llanishi o'rganildi. Ushbu usullar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

An'anaviy metodlar, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri o'qitish va guruhli mashg'ulotlar;

Interfaol metodlar, talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan interaktiv faoliyatlar;

Lingofon kabinetlardan foydalanish, audio va vizual vositalar orqali tilni mashq qilish;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlangan metodlar, elektron qo'llanmalar, veb-kvestlar va kompyuterlashtirilgan mashqlar;


Dasturlashtirilgan metodlar, avtomatlashtirilgan o'quv dasturlari orqali bilimni bosqichma-bosqich o'zlashtirish;

Ilg'or pedagoglarning mualliflik metodlari, zamonaviy tadqiqotlar va pedagogik tajribalarga asoslangan innovasion yondashuvlar;

OTMlarda ishlayotgan chet tili o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy mualliflik metodlari, talabalarning individual xususiyatlari va konnotativ bilimlarni e'tiborga olgan holda ishlatilmoqda.

Shu bilan, **zamonaviy o'qitish jarayonida konnotativ resurslar va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish** talabalarning tilni nafaqat grammatik va leksik jihatdan, balki emosional va madaniy kontekstda ham samarali o'zlashtirishlariga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari ko'rsatishicha, pedagoglarning 68 foizi interfaol metodlardan foydalanishga o'rinishadi, qolgan 12 foizi esa, hanuzgacha faoliyatida an'anaviy metodlardan foydalanayotganing guvohi bo'ldik, pedagoglarning 11 foizi talabalarning tinglab-tushunish layoqatini oshirish uchun harakat qilishadi. Shaxsiy mualliflik metodlaridan 3 foiz pedagoglar foydalanishadi (-rasmga qarang).



3-rasm. Pedagoglar tomonidan ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan metodlar ulushi

Rasmda ko'rinib turibdiki, ingliz tilini o'qitishda **interfaol va an'anaviy metodlarning birlashgan qo'llanishi** talabalarning tinglab-tushunish qobiliyatini rivojlantirishga eng katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga, **axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirilgan va dasturlashtirilgan metodlardan foydalanish hajmi hanuz kam**, bu esa talabalarning konnotativ mohiyatli leksikani samarali o'zlashtirishida qo'llanilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni cheklaydi.

Xorijiy tillarning tezkor va samarali o'qitish usullari kam bo'lishi, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan chet tillari o'qituvchilarining malakasi pastligini anglatmaydi. Bu ob'yektiv holat, avvalo, **chet tillari o'qituvchilari uchun zarur pedagogik va texnik shart-sharoitlar yetishmasligi**, shuningdek ularning **innovasion, raqamli va multimediali vositalar bilan ishlash ko'nikmalarining cheklanganligi** bilan bog'liqdir.

Talabalarning **konnotativ ma'noli matnlarini raqamli texnologiyalar asosida samarali o'zlashtirish** uchun barcha pedagoglar zamonaviy innovasion pedagogik faoliyatni amaliyotga tatbiq etishi shart. Ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida, ingliz tili bo'yicha faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlardan

innovation usullar va loyihalarni tahlil qilish, ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha yuqori darajadagi malaka talab qilinadi.

Bunda zamonaviy o'qituvchi quyidagilarni amalga oshirishi lozim: **pyedagogik tadqiqotlar va innovation loyihalarni amalga oshirish**, yangi va samarali metodlar asosida o'quv jarayonini boyitish; **intellektual mulkni himoya qilish va rivojlantirish**, ya'ni avtorlik metodik ishlanmalarini samarali joriy etish; **ingliz tilidagi konnotativ matnlarni o'zlashtirish uchun maxsus tayyorgarlikka ega pedagogik kadrlarni yetishtirish**, bu orqali talabalarning **leksik kompetensiyasi, grammatik malakalari va kommunikativ qobiliyatlari** muntazam rivojlantiriladi; **innovation shakl, vosita va metodlarning integratsiyasi** orqali o'quv jarayonini interaktiv va kontekstga boy qilib olib borish.

Shu tariqa, raqamli texnologiyalar, konnotativ kontekst va zamonaviy pedagogik usullar birlashtirilganda, talabalar **lingvistik bilimlarini hamda madaniy va ekspressiv til ko'nikmalarini** bir vaqtda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2.2. Ingliz tilini o'qitishda konnotativ mohiyatli mantnlardan foydalanishning metodik tamoyillari

O'quv matnni idrok etishda talaba material mazmunini tushunish yo'lida asosiy ko'rsatma sifatida talaba matn tuzilishining algoritmini qabul qiladi va talabalarning umumiy dunyoqarashining shakllanganlik darajasi bilan birga, fanga oid egallagan kompetensiyalarini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Talabalarning konnotativ mohiyatli o'quv matnlarini o'zlashtirish maqsadini rejalashtirishda hammadan avval o'qituvchining ilmiy metodologik tayyorgarligiga bog'liqdir. Bunda didaktikadagi onglik tamoyili katta ahamiyat kasb etadi.

“Amaliy ingliz tili» o'quv mashg'ulotni tashkil etishda uni algoritmik jihatdan loyihalash, har bir bandini qisqacha xulosalash; mashg'ulotning bir qismidan ikkinchisiga o'tishda mantiqiy aloqadorlikni ta'minlash; mashg'ulotda matnni muammoli va hissiy tarzda bayon qilish; bunda nutq imkoniyati, misollar, aniq

dalillar va qiyoslashlardan foydalanish; talabalarning bilish faoliyatini mahorat bilan boshqarish va boshqalar muhim bo'lib hisoblanadi.

Ingliz tilini o'qitishda konnotativ mohiyatli matnlarni o'zlashtirishning quyidagi asosiy tamoyillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- madaniyatlararo aloqadorlik va muvofiqlik prinsipi;
- ekspressivlikka tayanilgan ijodkorlik prinsipi;
- o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirish prinsipi;
- o'zgaruvchanlik prinsipi;
- shaxsning ko'p madaniyatli o'zini o'zi belgilash va o'zini namoyon qilish prinsipi;
- tolerantlik prinsipi;
- madaniy muloqot prinsipi.

Ma'lumki, an'anaviy ta'limda talabalar o'qituvchi tomonidan taqdim qilinayotgan tartibli ma'lumotni tinglab, tayyor ko'rsatmalar asosida bilim oladilar. Bunday reproduktiv ta'lim jarayonida talabalar o'qituvchi yozdirgan axborotni yodlash, o'xshatib misol keltirish, o'qituvchidan eshitganlarini takrorlash kabi faoliyat bilan shug'ullanib, ta'lim jarayonining oddiy kuzatuvchisi, tinglovchisi bo'lib qoladilar.

Ingliz tilini o'qitishda **konnotativ mohiyatli o'quv matnlari** talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi, ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi va bilimlar tizimini mukammallashtirishni ta'minlaydi. Shu bois, talabalarning **lingvistik bilimlarni samarali o'zlashtirishi va kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishida** muhim omillardan biri ularda **ijodkorlik sifatlari va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish** hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, talabalarning ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirishlari uchun ta'lim mazmuni **yagona integral tizim sifatida** o'qitishning metodik qonuniyatlariga bo'ysunadi:

Ta'lim mazmunini shakllantirishda birlik. Ijtimoiy, pedagogik, psixologik, fiziologik, ilmiy-texnik, lingvistik va semiotik elementlarning uzluksiz uyg'unligi. Bu nazariy pozisiya ta'lim mazmunining umumiy modelini yaratishga xizmat

qiladi. Ta'lim mazmunini shakllantirishda birlik tamoyili markaziy o'rin tutadi. Ushbu tamoyil ta'lim tizimidagi barcha komponentlarni, ya'ni ijtimoiy, pedagogik, psixologik, fiziologik, ilmiy-texnik, lingvistik va semiotik omillarni o'zaro bog'liq, izchil va uzluksiz tizim sifatida qarashni taqozo etadi. Ayniqsa, til o'rganish jarayonida bu birlik mazmunan chuqurroq ahamiyat kasb etadi, chunki til nafaqat bilim ob'yekti, balki tafakkur, muloqot va madaniy tajribaning asosiy vositasi hisoblanadi. O'z-o'zidan ta'lim mazmunini shakllantirishda lingvodidaktik yondashuv umumiy nazariy pozisiya bilan uzviy uyg'unlikda olib borilishi zarurligi kelib chiqadi.

Ijtimoiy omillar ta'lim mazmunining maqsad va vazifalarini belgilaydi. Zamonaviy jamiyatda til bilimi shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbiy faoliyati va madaniy muloqotini ta'minlovchi muhim resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Talabalarning akademik mobillik, kasbiy muloqot, madaniyatlararo leksik bazadan foydalanish ehtiyojlari ta'lim mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pirovardida ta'lim mazmuni jamiyat taraqqiyoti, mehnat bozori va madaniy aloqalar rivoji bilan muvofiq holda yangilanib borishi lozim.

Oliy ta'limda ingliz tilini o'rgatish jarayonida pyedagogik va psixologik omillar ta'lim mazmunini tanlash va tizimlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Talabalarning yosh, bilish imkoniyatlari, motivatsiyasi va kognitiv uslublari hisobga olinmagan holda tuzilgan ta'lim mazmuni samarali bo'la olmaydi. Lingvodidaktik nuqtai nazardan, til materialini bosqichma-bosqich, kommunikativ yo'nalishda, reseptiv va produktiv ko'nikmalarning o'zaro bog'liq rivojini ta'minlagan holda berish talab etiladi. Bu esa ta'lim mazmunida nazariya va amaliyotning mutanosibligini ta'minlashni taqozo qiladi.

Talabalarning har biri o'ziga xos fiziologik va psixologik xususiyatlari til o'rganishda muhim sanaladi. Jumladan, fiziologik omillar, xususan, nutq faoliyatining neyrofiziologik asoslari, xotira va diqqat mexanizmlari til o'rganish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalarda fonetik eshitish, artikulyasion malakalar va nutq avtomatizatsiyasini rivojlantirish uchun ta'lim mazmuni ma'lum me'yor va takrorlanish tizimiga ega bo'lishi lozim. Bu jihatlar hisobga olinganda,

ta'lim mazmunining hajmi, murakkabligi va taqdim etish sur'ati ilmiy asoslangan holda belgilab olinadi.

Ilmiy-texnik omillar ta'lim mazmunini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli vositalarni qo'llashni taqozo etadi. Til o'rganishda elektron platformalar, multimediali resurslar va interaktiv muhitlar lingvodidaktik samaradorlikni oshiradi. Biroq bu vositalar mazmundan uzilgan holda emas, balki lingvistik va semiotik elementlar bilan uyg'un holda joriy etilishi lozim. Til belgilar tizimi sifatida semiotik xususiyatga ega ekan, ta'lim mazmunida belgilar, ma'nolar va kontekst o'rtasidagi munosabatlar chuqur anglatilishi kerak.

Ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ushbu nazariy pozisiya tadqiqotda alohida o'rin oldi. Chunki turli omillarning uzluksiz uyg'unligi til o'rganishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunining umumiy modelini yaratishga xizmat qildi. Bu model talabalarining lingvodidaktik xususiyatlari, individual ehtiyojlari va zamonaviy jamiyat talablarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Natijada ta'lim mazmuni nafaqat bilim berish, balki shaxsning kommunikativ, kognitiv va madaniy rivojini ta'minlovchi kompleks tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Integratsiyaning darajalarini sifat va samaradorlikka yo'naltirilgan holda **umumiy ilmiy, fanlararo va ta'lim shakllari bo'yicha** o'zaro uzviy bog'liqligi. Ta'lim jarayonida axborot va bilimlarni mexanik jamlash emas, balki ularni yagona mantiqiy-nazariy tizimga keltirish imkonini beradi. Umumiy ilmiy darajada integratsiya bilishning universal kategoriyalari, metodologik tamoyillari va ilmiy tafakkur usullarini shakllantirishga xizmat qilib, ta'lim mazmunining konseptual yaxlitligini ta'minlaydi. Bu darajada bilimlar fanlar chegarasidan chiqib, ilmiy dunyoqarashni rivojlantiruvchi umumlashtirilgan bilim sifatida talqin etiladi.

Fanlararo integratsiya alohida fanlar o'rtasidagi mazmuniy va metodik aloqalarni ochib beradi. Ushbu darajada ta'lim jarayoni murakkab hodisalarni turli fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilishga yo'naltiriladi, bu esa talabalarda tizimli va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Fanlararo yondashuv bilimlarning fragmentatsiyasini bartaraf etib, ularni funksional va amaliy ahamiyatga ega yaxlit

tuzilma sifatida anglash imkonini yaratadi. Natijada o'quv materiallari real hayotdagi muammolar bilan mazmunan bog'lanadi.

Ta'lim shakllari integratsiyasi esa, o'quv fanlari doirasida shakllangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarning yakka, juftlik, jamoaviy va masofaviy kabi o'qitish shakllarida rivojlanishini ta'minlaydi. Bu darajada integratsiya nazariy bilimlarning amaliy faoliyatga tatbiq etilishi, kompetensiyaviy yondashuvning samarali amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Talabalar bir ta'lim shaklida o'zlashtirgan bilimlarini boshqasida qo'llash orqali bilish faoliyatining yuqori bosqichiga ko'tariladi, bu esa ularning ijodiy va refleksiv tafakkurini rivojlantiradi. Mazkur o'qitish shakllarining uzviy uyg'unligi ta'lim jarayonida axborotni bilimga aylantirish mexanizmini chuqurlashtiradi. Axborot faqat faktlar majmui sifatida emas, balki ma'no, kontekst va ilmiy izoh bilan boyitilgan bilim shaklida o'zlashtiriladi. Shu tariqa integratsiya ta'lim mazmunining semantik zichligini oshirib, bilimlarning konnotativ qatlamini, ya'ni ularning yashirin, madaniy va qadriyatga yo'naltirilgan ma'nolarini o'zlashtirishni faollashtiradi.

Funksional bog'liqlik. Ta'lim mazmuni tizimida ijtimoiy, pedagogik va psixologik funksiyalarning o'zaro bog'liqligi va uyg'unligi ta'limning barqaror modelini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Ushbu qoidalar **ingliz tilini o'qitishda integrativ yondashuvni** amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv talabalarning kognitiv faoliyati, o'quv jarayoni va kommunikativ tarkibli vaziyatlar bilan bog'liq o'quv materiallarini birlashtirishni ta'minlaydi. Funksional bog'liqlik tamoyili ta'lim mazmuni tizimida ijtimoiy, pedagogik va psixologik funksiyalarning uzviy uyg'unligi sifatida namoyon bo'lib, ta'limning barqaror va moslashuvchan modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu model ta'limni faqat bilim uzatish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy tajribani egallashi, bilish faoliyatini rivojlantirishi va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishi bilan tavsiflanadigan murakkab tizim sifatida talqin etadi. Shu ma'noda funksional bog'liqlik ta'lim mazmunining ichki mantiqiy yaxlitligini hamda uning jamiyat ehtiyojlariga mosligini ta'minlovchi metodologik asos hisoblanadi.

Ijtimoiy funksiya ingliz tilini o'qitishda tilni global muloqot vositasi, madaniyatlararo aloqalar va kasbiy faoliyatni ta'minlovchi resurs sifatida anglash bilan belgilanadi. Ta'lim mazmuni real kommunikativ vaziyatlar, ijtimoiy rollar va diskurs turlarini aks ettirgan holda shakllantirilganda, talabalarda til birliklarining konnotativ ma'nolarini anglash va ularni mos kontekstda qo'llash ko'nikmasi rivojlanadi. Bu jarayonda leksik birliklar nafaqat semantik, balki pragmatik va madaniy yuklama bilan o'zlashtiriladi.

Pedagogik funksiya ta'lim mazmunini tizimlashtirish, ketma-ketlik va integrativlik asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Ingliz tilini o'qitishda integrativ yondashuv o'quv materiallarini mavzuviiy, funksional va kommunikativ jihatdan birlashtirish imkonini beradi. Bunda konnotativ leksik baza — frazeologizmlar, idiomalar, stilistik rangga ega birliklar — grammatik va nutq faoliyati turlari bilan uzviy bog'langan holda taqdim etiladi. Natijada talabalar til birliklarining funksional qiymatini real nutqiiy vaziyatlarda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar.

Psixologik funksiya esa talabalarining kognitiv faoliyati, motivatsiyasi va individual bilish strategiyalarini hisobga olish bilan bog'liq. Konnotativ leksikani o'zlashtirish yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalarini — tahlil, taqqoslash, inferensiya va kontekstual talqin qilishni — talab etadi. Shu bois o'quv materiallari muammoli vaziyatlar, rolly o'yinlar va kommunikativ topshiriqlar asosida tashkil etilganda, talabalar faol fikrlovchi va tilni ongli ravishda qo'llovchi subekt sifatida shakllanadi.

Mazkur funksiyalarning o'zaro bog'liqligi ingliz tilini o'qitishda o'quv jarayoni, kognitiv faoliyat va kommunikativ tarkibli vaziyatlarning yagona tizimga birlashuvini ta'minlaydi. Bu jarayonda konnotativ leksik baza amaliy nutq faoliyatining ajralmas qismiga aylanib, talabalar tomonidan autentik matnlar, muloqot ssenariylari va diskursiv vazifalar orqali faol qo'llaniladi. Natijada til bilimlari reproduktiv darajada emas, balki produktiv va ijodiy darajada o'zlashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, funksional bog'liqlikka asoslangan integrativ yondashuv ingliz tilini o'qitishda ta'lim mazmunining ilmiy, amaliy va

kommunikativ samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv konnotativ leksik bazani nazariy tushuncha emas, balki real nutqiy faoliyat vositasi sifatida shakllantirishga xizmat qilib, talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, madaniyatlararo sezgirligi va kasbiy tayyorgarligini kompleks rivojlantiradi.

“Amaliy ingliz tili” mashg‘ulotlari mazmunidagi integratsiya deganda **bilimlar tizimini shakllantirish, turli fan va uslublarning sintezi, faoliyat usullari va turlarining uyg‘unligi** tushuniladi. Masalan, ta’limga integrasion yondashuv asosida **o‘qitish usullari mazmunini birlashtirish va butun o‘quv jarayonini uslubiy «ko‘rish prizmasi» orqali qurish** nazarda tutiladi.

Talabalarga chet tilini **aloqa vositasi sifatida o‘qitishda integrasion yondashuv** ularga:

o‘quv jarayoniga o‘z nuqtai nazaridan yaxlit qarash;

lingvistik va nutq materiallarini sifat jihatdan yangicha tanlash;

o‘quv va kognitiv, ishlab chiqarish va ta’lim funksiyalarini birlashtirish imkonini beradi.

Shu tariqa, konnotativ kontekstli integrativ yondashuv talabalarning **leksik va grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish**, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirish, hamda ularda bilimlar tizimini mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy o‘quv jarayoni muqarrar ravishda talaba uchun ijtimoiy va shaxsan muhim motivlar va maqsadlar, aniq aloqa ehtiyojlari, amaliy foydalanish sohalari va holatlari bilan bog‘liq. Amaliy maqsadlar, birinchidan, chet tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ikkinchidan, til tizimi haqida bilim berish, buning asosida tilni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

“Amaliy ingliz tili» o‘quv mashg‘ulotlari maqsadi talabalarni qiziqtirgan sohalari bilan bog‘liq matnlarni tushunishga va kundalik suhbatda aniq gapirishga, faktik ma’lumotlarni yetkazishga, harakatlar sabablarini ko‘rsatishga, orzular, umidlar va ambisiyalarni tasvirlashga o‘rgatishdir.

Konnotativ mohiyatli matn materialida ishlatiladigan voqealar syujetlari talabalarning haqiqiy ehtiyojlari va qiziqishlarini o'rganish asosida tuziladi. Asosiy akademik matn raqamli dialog oynasidir. Bu til materialini aloqa vaziyatlari ko'rinishida taqdim etish imkonini beradi va uni haqiqiy muloqot amaliyotida modellashtirish, o'zgartirish va birlashtirish imkonini yaratadi.

Badiiy matnlardagi o'xshashliklar, til konstruksiyalarining o'ziga xosligini o'rganishga qaratilgan mashqlar yordam beradi. Ushbu mashqlarni talabalar bajarayotganda, misollar, o'xshashliklar, uyushmalar va yetakchi savollar matn g'oyasini uzatishda asosiy semantik yukni ko'tarmaydi. Matn mazmunini yetkazish uchun talabalar birinchi navbatda matndan asosiy semantik yukni ko'tarmaydigan jumlalarini chiqarib tashlashlari kerak. Ushbu ishning natijasi konspektidir.

Talabalar konspekt yozishni o'rgangach, tezislar yozishga o'tadilar. Buning uchun har bir nisbatan to'liq matn uchun quyidagi savollar beriladi:

matndagi asosiy g'oya nima?

matnning bu qismida nima xaqda fikr bildirilgan?

matnning har bir semantik qismini nomlang;

belgilangan fasllarning mavzularini nomlang.

«Matnning ushbu qismida nima deyilgan?» kabi semantik segmentiga va savolga javob topish uchun talabalar tomonidan mustaqil ravishda daftarlarga yozib qo'yilgan matnning tezislarini shakllantirish talab etiladi. Bundan tashqari, tezislarni qisqartirish, ularni mos yozuvlar iboralari bilan taqdim etish orqali ma'lum bir mantiqiy ketma-ketlikdagi bayonotlarni qurish qobiliyatini rivojlantirishga zamin hozirlanadi. Buning uchun "Amaliy ingliz tili» o'quv mashg'ulotlarida quyidagi metodik ish turlarini bajarish talab etiladi:

O'qigan matn uchun savollarni shakllantirish.

Rejaning har bir bandining mazmunini ochib beradigan matnning asosiy jumllarini nomlash.

Taqdim yetilgan rejani to'ldirish.

Taklif etilgan rejadagi qo'shimcha yoki yetishmayotgan narsalarni aniqlash.

Rejaning taklif qilingan elementlarini matnga muvofiq to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish.

Matnda berilgan g'oyalarni ketma-ketlikda joylashtirish.

Matn uchun reja tuzing, shunda birinchi xatboshi matnning butun mazmuniga bo'ysunadigan asosiy narsani aks ettirish va boshqalar.

Ingliz tilidagi konnotativ mohiyatli matn asosida talabalarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish matnni siqishning barcha turlarini o'zlashtirish, talabalarning izchil matn bilan ishlash ko'nikma va malakalarini oshirishga mo'ljallanishi kerak. Bu alfozda, o'quv jarayonida matn va grammatik materiallar bilan ishlashning integrativ shakllari amalga oshiriladi, talabalarda esa, umumiy ilmiy ko'nikmalar shakllanadi.

“Amaliy ingliz tili” o'quv mashg'ulotlarida konnotativ mohiyatli o'quv materialini samarali o'zlashtirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar asosida ish olib boriladi:

integrativ o'qitish tamoyillari va nazariy asoslar – mashg'ulotlar zamonaviy pedagogik va lingvistik nazariyalar, shuningdek fanlararo integratsiya prinsiplariga tayaniladi;

o'qitish shakllari, metodlari va vositalari-talabalarning turli kognitiv uslublari va aloqadagi ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maqsadga muvofiq tanlanadi;

badiiy matnlar bilan ishlash – talabalarning kontekst asosida leksik, grammatik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida matnlarni tahlil qilish, baholash va ijodiy qayta ifodalash usullari ishlab chiqiladi;

o'quv matnlarini integrativ tizimlashtirish- mazmun, uslub va fanlararo aloqalarni uyg'unlashtirgan holda tartiblashtiriladi, bu talabalarning bilim va ko'nikmalarini mukammal shaklda egallashiga yordam beradi;

matnni taqdim etish texnologiyalari va vositalari – konnotativ va kommunikativ jihatdan boy materiallarni interaktiv usullar, veb-kvestlar, kompyuterli o'yinlar va elektron platforma asosida taqdim etish yo'llari tanlanadi;

o‘qitish bosqichlari va vazifalari – mashg‘ulotning har bir bosqichida talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, reproduktiv va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish uchun aniq vazifalar belgilab chiqiladi.

Matnda uchraydigan grammatik hodisalar talabalar tomonidan o‘zlashtirishlarida vaziyatlar, nutq qoidalari bilan o‘zaro aloqada bo‘lish kerakligi inobatga olinadi. Matn orqali nutq ko‘nikmalarini, tashabbuskorlikni va nutq javobini shakllantirish bosqichma-bosqich murakkablashishi, dialog modellarini joylashtirish va uning alohida tarkibiy qismlari ketma-ketligini o‘zgartirish bilan amalga oshirilishi inobatga olinadi. Ingliz tilini o‘qitishning har bir shakl (ham tovushli, ham grammatik) ma’lum bir matnda uning ma’nosi bilan o‘zaro aloqada nutq ko‘nikmalarini mustahkamlash jarayonida o‘rganilishi kerakligiga e’tibor qaratiladi. Matnni tavsiflash tizimi lingvistik va amaliy jihatdan aniq ko‘rinadigan va tahlil qilish uchun qulay bo‘lishiga urg‘u beriladi. Nutq ko‘nikmalarining shakllanish darajasini aniqlash uchun testlar ishlab chiqilib, nazorat ob’yektlari nutq faoliyatining har xil turlari: o‘qish, tinglash, gapirish, yozishni rivojlantirish bosqichlarini ta’minlanishiga e’tibor qaratiladi. Ingliz tilini o‘qitishda konnotativ mohiyatli o‘quv materialidan foydalanishning amaliy samaradorligi o‘rganiladi.

Ushbu tadqiqotni o‘tkazish davrida (2022-2025yy.) tanlangan usullar samaradorligini aniqlash uchun hamda “Amaliy ingliz tili» o‘quv mashg‘ulotlari vazifalari va maqsadlarini bajarishga imkon beradigan metodika ishlab chiqildi.

Talabalarning ingliz tilidagi o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishlari uchun oddiy nutq modellariga asoslangan va nutqni tartibga solishning aniq belgilangan funksiyasiga ega bo‘lgan til tizimiga kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘quv texnologiyasi tatbiq etildi. Muloqot muhim o‘rin tutadigan motivatsiya vositasi sifatida optimal lingvodidaktik tarkib bilan to‘ldirildi va nutq va til tuzilmalarini o‘zlashtirishga xizmat qildi.

Konnotativ mohiyatli o‘quv matni materialiga yuqori talablar qo‘yilib, u ham bilim manbai, ham muhim ma’lumotlar, ham til tizimini o‘rganish uchun model ekanligi inobatga olindi.

“Amaliy ingliz tili” o‘quv mashg‘ulotlarida talabalarning madaniy tushunchalarini hamda turli mavzular va muammolarga oid nazariy bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni grammatik elementlar, iboralar, jumla tuzilmalari va nutqiy konstruksiyalarning amaliy misollari orqali amalga oshirildi. Mashg‘ulotlar davomida talabalarga til birliklari faqat grammatik qoida sifatida emas, balki madaniy va ijtimoiy kontekstda qo‘llanilishi misollar orqali tushuntirildi. Natijada talabalarning nutqiy faoliyati, tahlil qilish, solishtirish va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalari kengaydi.

O‘quv jarayonini samarali tashkil etish maqsadida quyidagi innovasion pedagogik texnologiyalar qo‘llanildi:

SVOT tahlil (SWOT analysis) texnologiyasi. Ushbu texnologiya talabalarda tahliliy fikrlashni rivojlantirish hamda til materialini chuqur anglashga xizmat qildi.

Metodik qadamlar:

O‘qituvchi muayyan mavzu yoki matnni (masalan, “Cultural differences in communication”) taqdim etadi.

Talabalar guruhlariga bo‘linib, matn asosida:

Strengths – til birliklarining kuchli jihatlari;

Weaknesses – qiyin yoki murakkab tomonlari;

Opportunities – amaliy nutqda qo‘llash imkoniyatlari;

Threats – xato qilish xavfi bo‘lgan holatlarni aniqlaydi.

Har bir guruh o‘z tahlilini og‘zaki yoki yozma shaklda taqdim etadi.

“Lingvistik diagramma” texnologiyasi. Bu texnologiya grammatik tuzilmalar va nutq konstruksiyalarini vizual tarzda anglashni osonlashtirdi.

Mazkur texnologiyaning olib borilish qadamlari:

O‘qituvchi jumla tuzilishi yoki grammatik mavzuni (masalan, Conditional sentences) belgilaydi.

Talabalar diagramma (klaster, mind map) orqali jumla qismlari, zamonlar va bog‘lovchi elementlarni tasvirlaydi.

Diagramma asosida talabalar mustaqil ravishda yangi jumla va matnlar tuzadi.

3. “Lug‘atdan maqolagacha” texnologiyasi. Ushbu usul talabalarning lug‘at boyligini kengaytirish va yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qildi.

Mazkur texnologiyaning olib borilish qadamlari:

Mavzuga oid asosiy leksik birliklar beriladi.

Talabalar so‘zlarni ibora va jumla darajasida qo‘llaydi.

Jumla va iboralar asosida qisqa abzas, keyin esa to‘liq maqola yoziladi.

Yozilgan ishlar tahlil qilinib, til va uslub nuqtai nazaridan muhokama qilinadi.

“Tahlil va tasvir” texnologiyasi. Bu texnologiya talabalarning tanqidiy fikrlash va tavsiflash ko‘nikmalarini shakllantirdi.

Mazkur texnologiyaning olib borilish qadamlari:

O‘qituvchi vizual material (rasm, video, madaniy vaziyat) taqdim etadi.

Talabalar avval ob‘yektni yoki vaziyatni tasvirlaydi (descriptive stage).

Keyin esa uning ma‘nosi, madaniy jihatlari va tildagi ifodasini tahlil qiladi (analytical stage).

Yakunda og‘zaki muhokama yoki yozma xulosa tayyorlanadi.

Taklif etilayotgan texnologiyalarning samaradorligini ta‘minlash vositalari, bir tomondan, muloqotni rag‘batlantirish va faollashtirish, nutq aloqasi (asosan rol o‘ynash, matnlarni talqin qilish va sahnalashtirish orqali), boshqa tomondan-til tizimini oshkor qilish orqali amalga oshirildi.

2.3. Konnotativ mohiyatli o‘quv materiallari orqali talabalarning og‘zaki (colloquial speech) va yozma (writing) nutqini rivojlantirish

“Amaliy ingliz tili” kurslarida konnotativ mohiyatli o‘quv materiallaridan samarali foydalanish orqali talabalarning og‘zaki (colloquial speech) va yozma (writing) nutqini rivojlantirish jarayonida quyidagi holatlar aniqlandi:

OTMlarda tahsil olayotgan bakalavrlar chet tilida so‘zlashish, savollarga javob berish, savol so‘rash, suhbatlashish va bahslashish hamda o‘z fikrini aniq bayon qilish kabi kommunikativ ko‘nikmalarni egallashi kerak. Shuningdek, ular

ingliz tilida maslahat berishi, ariza yozishi, rasmiy xatlar shakllantirishi va umumiy yozma malakalarga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Talabalarning **ingliz tilida rasmiy ma'lumotlar**, bank va moliya hujjatlari, bayonnomalar kabi ko'p soha va yo'nalishlarni qamrab olgan yozma layoqatni samarali amalga oshirishi har doim ham oson kechmaydi. Bu, ayniqsa, **matnni tizimlashtirish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish va ularni chet tilida bayon qilishda** aniqlanadi.

Ushbu jarayonda pedagogning asosiy vazifasi — talabalarning **ma'lum va talab etilgan bilim, malaka va ko'nikmalarini aniq shaklda shakllantirish**, ularning amaliy faoliyatlarini muvofiq vazifalar orqali yo'naltirish va shu vazifalarni bajarish uchun tegishli **pedagogik muhit va shart-sharoitlarni** yaratishdan iborat. Shunga qaramay, talabalarda matnni integrativ ravishda o'zlashtirish va ijodiy bayon qilishda murakkabliklar hanuzgacha saqlanmoqda. **Konnotativ mazmundagi matnlar** talabalarda nafaqat leksik va grammatik ko'nikmalarni rivojlantirish, balki ularning **muhokama, tahlil va mulohaza yuritish qobiliyatlarini ham** oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda o'quv materiallarining turli fanlar va hayotiy vaziyatlar bilan bog'lantirilishi talabalarda **mustaqil fikrlash va ijodiy nutqni rivojlantirish** uchun muhim omil hisoblanadi.

Talabalarning colloquial speyech va yozma -reading nutqining amaliyotdagi mavjud holati o'rganildi, ta'lim sub'yektining bosh ishtirokchisi-pedagoglar talaba faoliyatini quyidagi jihatlariga qaratishi lozimligi ayon bo'ldi:

- konnotativ mohiyatli o'quv materialini ingliz tilidagi muammoning real jihatlarini idrok qilishga yo'naltirish;
- konnotativ mohiyatli o'quv materialini aqliy izlanishlarni jadallashtirishga mo'ljallash;
- alohida holatlarni konnotativ mohiyatli o'quv materiali asosida psixologik sharhlashga o'rgatish;
- konnotativ mohiyatli o'quv materialini o'xshash va farqli tomonlarini topish uchun ob'yektlarni o'zaro qiyoslash;
- ob'yektlardagi umumiy ifodalilik, ekspressivlik jihatlarini tavsiflash;

- farqlarni keltirib chiqaruvchi ob'yektiv va sub'yektiv omillarni konnotativ mohiyatli o'quv materialini asosida sharxlash;

Tadqiqot doirasida talabalarning **og'zaki (colloquial speech)** va **yozma (writing)** nutqini rivojlantirish uchun **konnotativ mohiyatli o'quv materiallarining o'ziga xos xususiyatlari** tahlil qilindi. Shu asosda ularni quyidagicha tasniflash mumkin: 1) **mashqlar va materiallarning o'ziga xosligiga binoan:** mazmun, ma'no va kommunikativ maqsadga qarab turli darajadagi konnotativ elementlar bilan ajratish; 2) **nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni ijtimoiy turmushning barcha sohalarida samarali qo'llash** imkoniyatlari; 3) **Tadqiqotda asosiy e'tibor talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish uchun samarali metodlar, shakllar va vositalarni tanlashga** qaratildi.

Pedagogik jarayonda talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi lingvopsixologik va didaktik faoliyat muhokama qilindi.

O'qitishning asosiy umumiy pedagogik metodlari sifatida **og'zaki bayon qilish metodlari samarali deb topildi, chunki** ushbu metodlar orqali talabalar ingliz tilida so'zlashish, savollarga javob berish, suhbatlashish va bahslashish ko'nikmalarini mustahkamlaydilar hamda konnotativ mazmundagi mashqlar talabalarni ijodiy fikrlash va o'z nuqtai nazarini erkin ifoda qilishga yo'naltiradi.

Ko'rgazmalar va vizual vositalar orqali bayon qilish metodlari ham amaliyotga bir necha modifikatsiyalarda joriy etildi, ular (videoroliklar, infografika, plakatlar va interaktiv taqdimotlar) orqali talabalarning vizual idrokini rivojlantirishga erishildi hamda talabalarning matn mazmunini yaxshiroq tushunishini va grammatik hamda leksik materialni kontekstda qo'llashini ta'minladi.

Amaliy mashg'ulotlar orqali bayon qilish metodlari tadqiqotda alohida o'rin oldi, Rolli o'yinlar, topshiriqlar, debatlar va kvestlar orqali talabalarda real muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga erishildi va bu yo'l talabalarning konnotativ ma'noli nutq elementlarini samarali qo'llash, ijodiy fikrlash va leksik-grammatik malakalarini boyitish imkoniyatini yaratdi.

Talabalarning og‘zaki va yozma nutqini konnotativ mohiyatli o‘quv materiallari asosida nutqning tovushlar qatlami va leksik qatlamini bilish va qabul qilishni yengillashtiruvchi metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Talabalarning og‘zaki (colloquial speech) va yozma (writing) nutqini konnotativ mohiyatli o‘quv materiallari asosida rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning integrativ qo‘llanilishi eng samarali natijalar berishi ayon bo‘ldi. Shu jumladan, quyidagi yo‘nalishlar alohida ahamiyatga ega:

1. **Jamoaviy ta’lim turlari** – guruhlarda amaliy mashqlar va rolli o‘yinlar orqali talabalar bir-birining fikrlarini eshitish, kontekstda so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash va konnotativ ma’noli nutqni boyitish imkoniyatini beradi.

2. **Shaxsiy yo‘naltirilgan ta’lim turlari** – individual esse, blog yozuvlari va interaktiv onlayn topshiriqlar orqali talabaning mustaqil fikrlash va ijodiy leksik/grammatik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

3. **Belgili-kontekst ta’lim turlari** – konnotativ ma’noli matnlarni hayotiy va fanlararo kontekstlarda tahlil qilish orqali nutqni sifatli boyitishga xizmat qiladi.

4. **O‘yin texnologiyalari va muammoli ta’lim turlari** – rolli o‘yinlar, key-stadi, akvarium, zinama-zina va aqliy hujum mashqlari orqali talabalarning tezkor nutq ko‘nikmalari va konnotativ bayoni rivojlantiriladi.

5. **Axborot texnologiyalari va multimedia vositalari** – SD-Rom kurslari, videofilmlar, kinofilmlar, Xedra, PowerPoint, multimedia tizimlari orqali vizual va audiokontekst konnotativ ma’nolarni tushunishni osonlashtiradi, shu bilan birga interaktiv onlayn muhitdagi savol-javoblar, e-learning va mobil ta’lim platformalari orqali ham samarali qo‘llaniladi.

6. **Dasturlashtirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim** – ma’lum bir struktura va bosqichli mashqlar orqali talabalar konnotativ leksika va grammatika qoidalarini tizimli ravishda o‘zlashtirishi mumkin.

7. **Distansion ta’lim va konstruktiv ta’lim** – onlayn muhitda esse yozish, blog yoki diskussiyalarda qatnashish orqali talabalarning yozma nutq ko‘nikmalari rivojlanadi, shu bilan birga ularning konnotativ ma’noni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash qobiliyati oshiriladi.

8. **Interfaol metodlar** – guruhlarda ishlash, SWOT-analiz, klaster, rolli o‘yin, bumerang, ARIZ va oratorlik turnirlari orqali talabalar nutqni ijodiy va kontekstga muvofiq rivojlantirishga, konnotativ komponentlarni samarali qo‘llashga o‘rgatiladi.

Talabalarning og‘zaki va (colloquial speyech) yozma (“writing”) nutqini konnotativ mohiyatli o‘quv materiallari asosida rivojlantirishning mazmunini va tashkil etilishida amaldagi va biz taklif etgan metodik tizim alohida o‘rin tutadi. Quyida innovasion tendensiyalarning amaliyotda samarali qo‘llanilayotgani hamda ularning biz tomondan lingvointeraktiv elementlar bilan boyitilgani keltiriladi.

Ko‘p tarkibli metod (universal metod) va faol interfaol yondashuvlarning qo‘llanilishi. Chet tillarini o‘rgatishda samarali natijalarga erishish uchun **ko‘p tarkibli metoddan** foydalanish muhimdir. Bu metod **tilni o‘zlashtirishni shaxsiy va intellektual xususiyatlar bilan bog‘laydi**, shuningdek talabaning bilim va ko‘nikmalarini mukammal shakllantirishga xizmat qiladi. Uning asosiy tamoyillari quyidagicha: **1)tilni oddiy yodlash orqali o‘rgatish cheklanganligi** – ingliz tili mashg‘ulotlari mexanik yodlashga tayanmasdan, talabaning fikrlash va kognitiv qobiliyatlari asosida tashkil qilinishi kerak. Shu bilan birga, **konnotativ va kontekstli leksik materiallar** talabaning nutqida tabiiy va samarali o‘zlashtiriladi; **2) til va madaniyat birligi** – ingliz tilini o‘rganishda faqat leksik va grammatik ko‘nikmalar emas, balki milliy-etnik va madaniy kontekstni tushunish ham muhim ahamiyatga ega. Bu talabaga til orqali **ma’naviy va madaniy qiymatlarni ham o‘zlashtirish imkonini beradi**; **3) markaziy fokus tamoyili** – har bir mashg‘ulotda bir asosiy mavzular va g‘oyalarga e’tibor qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu talabaning diqqatini mutlaqo to‘g‘ri yo‘naltirishga va tilni aniq kontekstda o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Faol va interfaol metodlarning qo‘llanilishi. **Faol metod** talabani faqat bilim oluvchi emas, balki **o‘z bilimini shakllantiruvchi va amaliy holatlarda qo‘llaydigan shaxs** sifatida ko‘radi. Uning asosiy xususiyatlari: talaba turli muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qiladi; kognitiv, emosional va motivatsiyalangan faoliyat orqali til va kontekstni bir vaqtda o‘zlashtiradi;

amaliyot asosida talabaning ijodiy fikrlash va nutqni konstruktiv rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bu metod **innovation pedagogik texnologiyalar** bilan boyitilganda, talabalarning faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Interaktiv muloqot. Guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar, diskussiya va keystadi orqali talabalar o'z nutqini konnotativ va kontekstga muvofiq rivojlantiradi.

Multimedia integratsiyasi. Video, audio, e-learning, mobil platformalar va interaktiv prezentatsiyalar orqali talabalar tilni vizual va audiokontekstda o'zlashtiradi.

Amaliyotga yo'naltirilgan mashqlar. Esse yozish, suhbatlar, prezentatsiyalar va blog faoliyatlari talabalarning **writing va colloquial speech** ko'nikmalarini mukammal shakllantiradi.

Shaxsiy va guruhli yo'nalish. Talabalar ham mustaqil, ham jamoaviy tarzda o'z bilim va ko'nikmalarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning tilda erkin faoliyat ko'rsatish qobiliyatini oshiradi.

Talabalarning o'quv faoliyatidagi kamchiliklar va kitob bilan ishlashning integrativ ahamiyati

O'quv faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda bir qator zaifliklar va nuqsonlar mavjud. Xususan: **mustaqil fikrlash qobiliyatining yetarli rivojlanmaganligi**, ya'ni talabalar olingan bilimlarni mustaqil tahlil qilish, fikr yuritish va xulosa chiqarishda qiyinchiliklarga duch keladi; **fikrlash uslubining shakllanmaganligi**, ya'ni logik va ijodiy fikrlash mexanizmlari yetarli darajada faol emas; **mantiqsiz fikr yuritish va tahlil qilishdagi bo'shliqlar**, ya'ni talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning psixologik va metodik shartlari yetarli darajada ta'minlanmaganini ko'rsatadi.

Keltirilgan bo'shliqlarni bartaraf etishda **kitob bilan ishlash** an'anaviy usulining ahamiyati hanuz muhimdir. Kitob bilan ishlash orqali talabada **chuqur lingvistik va kognitiv fikrlash jarayoni** rivojlanadi.

Kitob bilan ishlashda talabaning barcha hissiy va kognitiv organlari integrativ tarzda faoliyat ko'rsatadi: **ko'rish organlari** matnni o'qish, diagramma va sxemalar bilan tanishish, grafik ma'lumotlarni anglash; miyani faollashgani

ma'lumotni tahlil qilish, murakkab leksik va grammatik konstruksiyalarni tushunish orqali ta'minlanadi, nutq orqali tekstni qayta ifoda qilish, konnotativ va kommunikativ kontekstda so'zlashga erishiladi, **qo'l va motor funksiyalar orqali** yozma topshiriqlar, konspektlar, sxema va diagrammalar tayyorlash mashq qilinadi, **integrativ kognitiv jarayonlar** sifatida o'qish, tahlil qilish, sistemalashtirish va xulosalash bosqichlari bir-biri bilan uyg'unlashtiriladi.

Demak, til o'rganish va o'rgatish jarayonida kitob bilan ishlash **tilni ko'p qirrali va interaktiv ravishda o'zlashtirish** imkonini beradi. Chunki bu jarayonda talabalar: savollar berishi va o'z fikrlarini bayon qilishi; o'quv materialini guruhlarda muhokama qilishi; konnotativ va kontekstli leksik qiymatlarni o'z nutqida qo'llashi; xulosalar chiqarish va tahlil qilishni mustaqil amalga oshirishi mumkin.

An'anaviy yondashuvlar sifatida kitob bilan ishlashni **innovasion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalar** bilan to'ldirilganda talabalarning fikrlash, tahlil qilish va nutq ko'nikmalari yanada rivojlanadi. Masalan: PDF, elektron kitoblar va interaktiv ilova orqali vizual va audio kontekstni integratsiya qilish; onlayn forumlar va guruhli muhokamalar orqali fikr almashish; Rolli o'yinlar va mini-diskussiyalar orqali konnotativ leksikani amaliyotda qo'llash.

O'z-o'zidan tadqiqotda kitob ishlash metodi o'zining samarasini bergani oydinlashdi. Bunda kitob bilan ishlash nafaqat an'anaviy, balki **integrativ, konnotativ va innovasion yondashuvlar bilan boyitilgan usul** sifatida talabalarning fikrlash va nutq ko'nikmalarini mukammal rivojlantirishda eng samarali vosita bo'lib xizmat qildi. Bu jarayonda talabalar mustaqil fikrlay oluvchi, murakkab lingvistik kontekstni tushunish va o'z fikrlarini to'liq ifoda qila oluvchi shaxsga aylandi.

Amaliy metodlar ham til o'rganish jarayonida, xususan. konnotativ mohiyatli matnlar kontekstida o'zining samaradorligini namoyon etdi. Ular bilimlarning faqat nazariy tushunchalar asosida emas, balki hayotiy tajriba va amaliy faoliyat orqali shakllantirilishiga yo'naltirilgan pedagogik usullar majmuidir. Chet tillarini o'qitishda amaliy metodlar kommunikativ funksionallikni rivojlantirishning asosiy

